

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 336.1:336.2(575.1)

Ravshanov Xurshid Akramovich

**Iqtisodiyotni rivojlantirishda byudjet soliq siyosatining ustuvor
yo‘nalishlari**

5A 230801 – “Soliqlar va soliqqa tortish ”

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

i.f.d., prof Malikov T.S.

TOSHKENT – 2016 y.

M U N D A R I J A:

KIRISH.....	3
I BOB. Iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq siyosatini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	8
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari.....	8
1.2. O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	23
I-bob bo‘yicha xulosa.....	30
II BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq siyosatini izchil amalga oshirilishining tahlili.....	33
2.1. Yuridik shaxslarning iqtisodiy faolligini oshirishda soliq siyosati va uning ahamiyatini ortib borishi.....	33
2.2. Iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlashda soliq yuki va uning ta‘sirining tahlili.....	38
2.3. Soliq islohotlarini amalga oshirishda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari.....	49
II -bob bo‘yicha xulosa.....	58
III BOB. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda soliq siyosatini takomillashtirish masalalari	60
3.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	60
3.2. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini yanada takomillashtirish masalalari.....	70
III-bob bo‘yicha xulosa.....	84
Xulosa	86
Foydalanilgan adabiyotlar.....	90

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

Bugungi kunda O'zbekistonda to'laqonli bozor iqtisodiyotini yaratish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tarkibida, barqaror rivojlanish va budget munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi sifatida, soliq siyosati ham, islohotni zamonaviy talablariga moslashtirib borilishini talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi»¹ - deb, juda o'rinli fikrni bildirganlar. Demak, O'zbekistondagi soliq islohoti iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bir qator umumiqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam berishi lozimdir.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan soliq siyosati mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilarni samarali faoliyatlari uchun shart-sharoit va asos yaratib borish, soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish, soliqlar yukini kamaytirish yo'nalishiga qaratilishini taqozo etib, bu esa iqtisodiy fanlar oldiga mazkur sohada yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifalarini qo'yayotgan bo'lsa boshqa bir tomondan esa soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liqligidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida soliq siyosati korxonalar faoliyatini yaxshilash ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish jumladan, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarning moliyaviy ahvolini mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilning asosiy yakunlari va 2016-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.:O'zbekiston, 1998 .

Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yoʻl ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” nomli maʼruzasida taʼkidlaganlaridek “...“Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyasiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, yaʼni prognoz koʻrsatkichlari doirasida boʻldi.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega boʻlgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga koʻra, Oʻzbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy oʻsish prognozlari boʻyicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani albatta barchamizga mamnuniyat etkazadi..”²

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining xozirgi bosqichida bozor munosabatlari toʻla hukmron boʻlgan, bozor iqtisodiyoti qonunlari va talablari toʻla amal qilinayotgan yoki iqtisodiyotni boshqarishning toʻla iqtisodiy, demokratik usullari yoki toʻliq maʼmuriy buyruqbozlik usullari qoʻllanilmoqda deb boʻlmaydi. Bunday oʻtish sharoitida soliqlar vositasida iqtisodiy jarayonlarni tartiblash tizimini toʻgʻri tashkil eta olish bozorning iqtisodiy talablariga moslashishda, ularning bosqichma-bosqich hukumronligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga oʻtish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy oʻzgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib belgilanganligidir. Iqtisodiy islohotlar boshlangan to hozirgi

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi <https://www.gov.uz/uz/news/view/4238>

davrga qadar respublikamizda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida soliq siyosatida bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlatning boshqaruvchilik funktsiyalarini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Kichik biznesni rivojlantirish orqali xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar ochib berish, shu bilan birgalikda budjet kamomadiga yo'l qo'ymaslik vazifalari belgilangan. Ushbu iqtisodiy vazifalardan kelib chiqqan holda soliq siyosatini to'g'ri oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Soliq siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi soliq siyosati korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir. Daromad solig'ining yuqori bo'lishi korxonalarni o'z mablag'larini o'zi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. bu esa moliya tizimini barbod bo'lishiga, ijtimoiy muammolarni keskinlashuviga olib keladi.

Yuqoridagi holatlar hozirgi kunda ilmiy izlanish mavzusining dolzarbligini va bu sohadagi muammolarni hal etish davlat iqtisodiy islohotlarining muhim o'rinda turishini tasdiqlaydi va mazkur muammolarni hal etishning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Magistrlik dissertatsiya ishining obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining soliq tizimida olib borilayotgan soliq siyosati jarayonidagi moliyaviy iqtisodiy munosabatlar va unga ta'sir etuvchi omillar tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining predmetini O'zbekiston iqtisodiyotini jumladan, soliq tizimini modernizatsiyalashuvi jarayonida soliq siyosati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan moliyaviy iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi tashkil qiladi.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat soliq siyosatining barqarorligini ta'minlash amaldagi holatini nazariy jihatdan o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va Respublikamizda iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilishida mamlakatimizda mavjud an'analarni hisobga oluvchi yangi soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va mulohazalar berishdan iboratdir.

Yuqoridagi maqsadlarga asoslangan holda quyidagilar asosiy vazifa hisoblanadi.

- ⇒ davlat soliq siyosatining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va obyektiv zarurligini asosli ravishda o'rganish;
- ⇒ davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini va uning barqarorligini amalga oshirishda soliq siyosatining roli va ahamiyatini yoritish;
- ⇒ davlatning iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishda soliq siyosatidagi muammolarni aniqlash;
- ⇒ soliq siyosatini tashkil qilishning xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish;
- ⇒ iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar hisoblanadi.

- davlat soliq siyosatining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va obyektiv zarurligini asosli ravishda o'rganildi;
- davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini va uning barqarorligini amalga oshirishda soliq siyosatining roli va ahamiyatini yoritib berildi;
- davlatning iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishda soliq siyosatidagi muammolarni aniqlandi;
- soliq siyosatini tashkil qilishning xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganildi;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar kelajakda O'zbekiston iqtisodiyoti jumladan soliq tizimini barqarorligi va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirishga doir chora – tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga shart–sharoit yaratadi.

Magistrlik dissertatsiya ishi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili to'g'risida so'z yuritilganda klassik iqtisodchi olimlarning soliq nazariyalari bo'yicha ilmiy asarlari, o'zbek va xorijiy iqtisodchi olimlarning mazkur muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlari hamda bozor munosabatlari va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq siyosati borasidagi ilg'or tajribalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ushbu sohaga taalluqli bo'lgan farmonlari, qonunlari, qarorlari hamda me'yoriy hujjatlari hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishida, soliq siyosati uning mohiyati va ular bo'yicha imtiyozlar bilan bog'liq bo'lgan muammolar, budjetni daromadlar man'baini shakllantirishda hududlar soliq salohiyatini baholash mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan muammolar taniqli mashhur klassik iqtisodchi olimlar A. Smit, D. Rikardo asarlarida, rossiyalik iqtisodchi olimlardan E. Voznesenskiy, L.A. Drobozina, V.M. Radionova, G.B. Polyak, V.N. Semenev, V.F. Stolyarov, V. Sengachov, D.G. Chernik kabi ko'pgina etakchi olimlarning ilmiy ishlarida sezilarli darajada ahamiyat berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodchi olimlari va amaliyotchi mutaxassisleri A.V. Vahobov, A. Abduqodirov, E. Gadoyev, Q.Bazarov, O. Norqobulov, T. Malikov, O. Olimjonov, P.J. Jamolov, S.K. Xudoyqulov, K. Yax'yoev, Q. To'qsonovlarning ilmiy ishlarida ham yoritib berilgan. Shu taraflama mazkur izlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar. Tadqiqot jarayonida quyidagi tahlil uslublaridan foydalanildi: ilmiy abstraksiya, ko'rsatkichlarni guruhlash, statistik tahlil, qiyosiy va mantiqiy tahlil, korrelyatsion – regression tahlil.

Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari Respublikamizda amalda bo'lgan soliq siyosatini yanada

takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bu ilmiy ishimiz hozirgi kunda eng dolzarb muammolar echimlarini hal etishga bag'ishlangandir.

Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi va tarkibi. Tadqiqot ishi kirish, xulosa, va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar qismidan tashqari uch bobdan iborat bo'lib, bu boblarda 7 ta savol mujassamlashgan.

I BOB. MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni olib borishda jumladan, Xalq manfaatlariga mos bulib tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat xar kanday davlatning erkin rivojlanishida majburiy shart hisoblanadi. Aynan shunday siyosatni ezgulik bilan amalga oshirib borish, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" nomli ma'ruzasi "O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profisit bilan bajarildi.² Yuqorida bildirilgan fikrda soliq siyosati vazifasining ikkiyoqlamalik xarakteri yaqqol ko'rinib turibdi. Bir tomondan soliq siyosatining strategiyasi davlat budjetini daromadlar bilan ta'minlash ekanligi ko'zda tutilayapti, ammo bu vazifa budjetni daromadlar bilan oddiygina ta'minlashdan iborat emas. Bu yerda vazifaning budjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan ya'ni soliq taktikasini bajarishga e'tibor qaratilayapti.

² 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://gov.uz/uz/press/politics/28895>

Hozirgi kunda mamlakatimizda soliq nazariyasi, soliq tizimi, jumladan soliq siyosati borasida xorijiy hamda mamlakatimiz olim va mutaxassislar tomonidan soliq siyosatining iqtisodiyotimizning modernizatsiyalashuvi davrida dolzabligi uning xususiyatlari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilib unga nisbatan o'z fikr mulohazalarini bildirmoqdalar.

Shu o'rinda professor T.S. Malikov "Budjet-soliq siyosati" nomli monografiyasida "... zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishning fundamental asoslari, soliq yukini engillashtirish –soliq siyosatining eng dolzarb muammosi, soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliq siyosati samaradorligini ta'minlashning garovi ekanligi, budjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzab muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal qilish yo'llari, O'zbekistonda budjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo'nalishlari) to'g'risida aniq tasavvurga va mustahkam pozitsiyaga ega bo'lmoqlari lozim"³ deb fikr bildirganlar.

Shu bilan birgalikda muallif soliq siyosatiga nisbatan o'z fikr-mulohazasini bildirar ekan soliqlar, jumladan soliq siyosati hamda mazkur muammoning Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan, hozirgi kundagi dolzarb masala ekanligini 25 ta fikr doirasida (monografiyaning 412-444 betlari) asoslab berilgan.

Ushbu fikrlar doirasida soliq siyosatining vazifalari nimalardan iborat kabi savollarga magistrlik dissertatsiya ishimiz doirasida qisqacha to'xtalishni lozim topdik.

Shu yerda bir narsaga aniqlik kiritsak, soliq siyosati nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin?

Umuman siyosat deganda, davlatning ilgaridan rejalashtirib, aniqlab va huquqiy me'yorlar asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

³ Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati /T.S. Malikov, P.T. Jalilov; T.S. Malikovning umumiy tahriri ostida; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tosh. Moliya in-ti. –T. Akademnashr, 2011. – 3 b.

Soliq siyosati – mamlakat bo'yicha ma'lum vaqtga belgilangan kontsepsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va moliyaviy siyosatining asosiy tarkibi, davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to'lash tartiblarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli tadbirlaridir.

Soliq tizimini davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, muvofiqlashtirilgan bu tadbirlari soliqqa tortish bilan bog'liq barcha munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, yoki soddaroq qilib aytganda soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar va qonun me'yorlarining ishlab chiqilishi va joriy etilishidir.

Soliq siyosati - iqtisodiy siyosatning umumlashgan ifodasi hisoblanib, har bir davlatda u muayyan davr talab va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilib turadi, chunki soliq siyosati davlatchilik siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib, respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ijtimoiy himoyalangan, erkin bozor iqtisodiyotini boshqarishga xar tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Soliq va uning funktsiyalari real boshlangich munosabatlarni, ya'ni obyektiv qonunchilikni harakatini soliq munosabatlarida aks ettiradi. Bu munosabatlar davlatning olib borayotgan soliq siyosatida ishlatiladi.

Soliq siyosati moliya siyosatining bir qismidir. Uning mazmuni va maqsadi jamiyat va ijtimoiy guruhlar tuzilishida turgan hukumat bilan shartlashgan bo'ladi.

Yuqori darajada rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida soliq siyosati davlat tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlab, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish, hududiy-iqtisodiy rivojlanish, ayrim tabaqadagi fuqarolarni daromad darajasini oshirish maqsadlarida ishlatadi.

Soliq siyosatining vazifalari:

- 1) davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash;
- 2) butun mamlakat miqyosidagi xo'jalikni boshqarishga sharoit yaratish;

- 3) bozor munosabatlari jarayonida vujudga keladigan aholi daromadlari tabaqalanishini tartiblab turish.

Soliq siyosatining maqsadi - soliqqa tortish masalalarida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishdir. Bu maqsad jamiyat ishlab chiqarishini rivojlantirilishiga qaratilib, iqtisodiy faoliyat jarayonlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan erishiladi. U kelajakdagi istiqbollar uchun qisqa muddatlarga ishlab chiqilgan bo'ladi. Shu munosabat bilan soliq strategiyasi va soliq taktikasi farqlanadi

Davlatning uzoq yillarga mo'ljallangan, soliq munosabatlaridagi muhim yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarning majmuasi uning soliq strategiyasida o'z aksini topadi. Soliq strategiyasi mamlakat miqyosida 5-10 yillik istiqbolda rivojlantirishning asosiy mezon bo'lib, uning negizini har tomonlama asoslangan ilmiy g'oya tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning erkinlashgan bozor munosabatlariga muvofiqlashtirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida soliq strategiyasi soliqlar tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, jahon hamjamiyatida shakllangan bozor munosabatlariga kirib borish uchun respublikada amaldagi soliqlar va soliqqa tortish tartib qoidalaridan tubdan farq qiladigan yangi soliq texnologiyalarini joriy qilish asoslarini yaratish vazifasini o'z ichiga oladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlat quyidagi masalalarga e'tibor beradi va ularni qo'llaydi:

- 1) iqtisodiy masalalar - ya'ni iqtisodni dinamik o'sishini ta'minlash, tsiklik ishlab chiqarishni susaytirish, inflyatsion jarayonlarni engish.
- 2) Ijtimoiy masalalar – ya'ni milliy daromadni qayta taqsimlashda ayrim ijtimoiy guruh qatlamlarini ko'zda tutgan holda foyda miqdorini o'sishini va aholi daromadlari darajasini tushib ketmaslik yo'llarini oldini olish.
- 3) Fiskal (xazina) masalalar – ya'ni davlat daromadlari qismini oshirish.
- 4) Xalqaro masalalar - boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, to'lov balansi uchun nomaqbul sharoitlarni oldini olish.

Davlatning soliq siyosatidan soliq mexanizmining yo‘nalishi kelib chiqadi. Shu yerda bir narsaga aniqlik kiritsak, soliq mexanizmi nima va unga qanday ta’rif berish mumkin?

Soliq mexanizmi budjet mexanizmini tarkibiga kiradi. Soliq mexanizmi deganda, soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan soliqlarning tashkil qilishning barcha elementlari, usullar va tamoyillari yig‘indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obykti, subyekti, soliq stavkasi, to‘lov muddatlari, soliq huquqi va xujjatlari kiradi. Soliq mexanizmi soliq tizimini amaliyotga tadbiq etilishini ifodalaydi. Soliq mexanizmidan foydalanish soliq elementlarining yig‘indisidan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchadir. Bu mexanizm tarkibida soliqlar va boshqa to‘lovlar (ajratma, yig‘imlar) kabi elementlar borligini aytib o‘tish zarur. Shu mexanizm tarkibida soliqlar aksariyat uzoq yillar harakat qilsa, ularning elementlari (masalan stavkasi) tez-tez o‘zgarib turishi mumkin. Demak, soliqlar soliq mexanizmining nisbatan mustahkam, uzoq yillarga mo‘ljallangan, kam o‘zgartiriladigan qismi. Ajratmalar, yig‘imlar va soliqlarning elementlari tez-tez o‘zgarib turadigan, hatto bekor bo‘lib ketadigan turidir.

Davlatning soliq siyosati yo‘nalishi o‘zgarishi bilan soliq mexanizmining keraksiz elementlari chiqarib tashlanadi va ularning o‘rniga yangi elementlar kiritiladi. Bunga misol qilib, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmaydigan soliqlar (masalan oborot solig‘i, sotish solig‘i) bekor qilinib, ularning o‘rniga yangi soliqlar (masalan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va boshqa soliqlar) vujudga keldi.

Soliq mexanizmiga o‘zgartirishlar kiritilib, takomillashtirilib boriladi. Albatta, uni tez o‘zgartirilishiga olib keladigan bir qator omillar mavjud, bularga pulning qadrsizlanishi, iqtisodiy rivojlanishlar jarayonida yangi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyotida rejalashtirish - bu iqtisodiyotni erkin boshqarish, ya’ni markaziy hukumat tomonidan amalda obyektiv faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiy qonunlarni hisobga olib, halq xo‘jaligini barcha tarmoq va hududlarni

tenglashtirilgan holda rivojlanish yo‘llarini hisobga olib, shuningdek jamiyat ishlab chiqarishini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli yo‘naltirilgan iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirilishidir.

Rejalashtirishning asosiy maqsadi – soliq qonunchiligidan kelib chiqib ishlab chiqilgan va qabul qilingan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi ko‘rsatkichlarini sifatli ta‘minlashdir.

Soliqlar orqali tartibga solish (nalogovoe regulirovanie) – budjetning soliq qismini bajarish jarayonida operativ aralashishning, iqtisodiy choralar tizimidir. Soliqlar orqali tartibga solish soliqlarning tartibga solish funksiyasidan kelib chiqadi, lekin bir tomondan uning maqsadi davlatning o‘z faoliyatlarini amalga oshirishda zarur bo‘ladigan daromad qismini shakllantirish bo‘lsa, boshqa bir tomondan soliqlar orqali tartibga solish xo‘jalik yurituvchi subyektlar kapitalini o‘stirishga va jamiyat boyligining o‘sishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Soliqlar orqali boshqarishning oxirgi maqsadlaridan biri bu davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholi manfaatlarini tenglashtirishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tartibga solishning asosiy maqsadi bu kompaniyalarni tashqi va ichki, ayniqsa investitsion faoliyatlari uchun umumiy soliq iqlimini yaratish, hamda eng muhim tarmoq va hududlarga kapital harakatini yo‘naltirish maqsadida preferentsial soliq sharoitlarini ta‘minlashdir. Nazariy jihatdan soliqlar orqali tartibga solish juda keng masshtablarga ega bo‘lishi mumkin, biroq ishlab chiqarish amaliyotida har doim ham soliq rag‘batlari tomon boravermaydi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarish milliy korxonalar investitsion faoliyatini rivojlantirishga va iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarga erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi va u har-hil usul hamda uslublar bilan amalga oshiriladi.

Soliq nazorati – bu soliq mexanizmining elementi bo‘lib, uning maqsadi soliq qonunchiligiga hamda buxgalteriya hisob va hisobot qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlashdir. Soliq nazorati moliya nazoratining bir qismi bo‘lib, budjetning daromad qismini soliq va yig‘imlar hamda soliq to‘lovchilar, soliqqa tortish obyektlari miqyosida bajarilishini ta‘minlash vazifasi kiradi. Soliq

nazoratining obyekti bo'lib moliya-xo'jalik faoliyati (xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy munosabatlari) operatsiyalari hisoblanadi.

Davlat soliq - budget siyosatining strategik vazifasi davlat mablag'larini tuzilmaviy qayta qurishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta'minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga va uning infratuzilmasiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga yo'naltirishdan iborat. Bu yerda soliq-budget siyosati deganda, davlatning budget daromadlarini optimal shakllantirish va davlat xarajatlarini ratsionalizatsiya qilish uchun soliq olishni takomillashtirish sohasidagi siyosati tushuniladi.

Soliq siyosati asosiga budgetga soliq tushumlari hajmlarini, soliq stavkalarini ko'paytirish hisobiga ega emas, balki ishlab chiqarishning tegishli tarmoqlarini va mahsulotning ustivor turlarini rag'batlantirish vositasida soliq solish bazasini ko'paytirishga imkon yaratadigan choralar hisobiga ko'paytirishga erishish zarurligi to'g'risidagi mafkura ko'yilishi kerak.

Davlatning amaldagi soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Soliqlarning ustqurma tartibining subyektiv hodisasi sifatidagi roli davlat faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ushbu rol doimiy harakatda bo'lib, butun halq xo'jaligining manfaatlari va maqsadlarini jamlama ko'rinishda aks ettirgan holda davlat siyosatining o'zgarishiga bog'liqdir.

Soliq siyosatini o'zgartirib, davlat muayyan doiralarda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirishi va uning iqtisodiyotda paydo bo'ladigan salbiy ko'rinishlarga yo'l qo'ymasligi mumkin.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Soliq siyosatining vazifasi –bir tomondan davlat budjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlash, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat"⁴. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda soliq siyosatining amalga oshirilishi natijasida budget daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdek vazifaning bajarilishi printsiptial ahamiyatga egadir. Bu vazifaning bajarilishi davlat moliyaviy

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. –b.52

axvolining mustahkamligidan dalolat beradi, davlat zimmasiga yuklangan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishiga moliyaviy zamin yaratadi, budget sohasini uzluksiz moliyalashtirishda muammolar paydo bo'lmaydi, davlat o'zining funktsiyalarini to'liq va o'z vaqtida bajarish imkoniga ega bo'ladi va aksincha, oqilona soliq siyosatini amalga oshirish natijasida budget daromadlarining barqaror safarbarligini ta'minlash vazifasining bajarilmasligi juda yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi shundoq ham ayondir.

Ikkinchi tomondan, soliq siyosati korxonalarni respublikamiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi ham kerak. Bu yerda gap soliq siyosati taktikasini amalga oshirish natijasida, eng avvalo, respublikamiz ichki bozorining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qilishi kerak. Undan tashqari, soliq siyosati strategiyasi umumiy tarzda korxonalarni mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirmasdan, balki ularni respublikamiz uchun zarur bo'lgan yoki respublikamizdagi talabga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi kerak.

Bu yerda soliq siyosatining oldiga qo'yilgan har ikki vazifadan birining bajarilish darajasini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har ikkala vazifaga bab-baravar, bir ko'z bilan qaramoq lozim. Bular parallel yo'nalishga va teng kuchga ega bo'lgan vazifalardir⁵.

Mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning budget tizimini mustahkamlash, budget daromadlarini to'ldirishni ta'minlaydigan va amaliy faollikni rag'batlantiradigan izchil soliq siyosatini o'tkazish... yo'li bilan shakllantirish

Mamlakat budgetining tarkibi avvalo uning davlat qurilishiga bog'liq. Unitar tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda, budget tizimi bamisoli ikki qavatli qurilmaga-davlat budgeti va mahalliy budgetlarga ega buladi. Federativ tizimga


⁵ Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati /T.S. Malikov, P.T. Jalilov; T.S. Malikovning umumiy tahriri ostida; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tosh. Moliya in-ti. –T. Akademnashr, 2011. – b.431

ega bo'lgan mamlakatlarda oraliq bug'inlar-shtatlar, o'lkalar va ularga muvofiq ma'muriy tuzilmalarning shtatlari mavjud.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005 yildan boshlab Davlat budjeti profisit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turganini ta'kidlab o'tdi (1-diagramma).

1-diagramma

Davlat budjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda⁶



Diagrammadan ko'rinadiki, 2000-2004- yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005-2008- yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, juda murakkab kechgan 2012 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budjet daromadlari uning xarajatlaridan ortish hajmi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. 2015- yilga kelib bu ko'rsatkich 0,1 foizni tashkil etdi. Umuman olganda, davlat

⁶ Diagramma O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

budjeti sohasidagi bunday natijalarni qoʻlga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich oʻzgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida boʻlgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga oʻtkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yoʻnalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli taʼsir koʻrsatdi⁷.

Bundan kelib chiqadigan dastlabki xulosa, soliq siyosati moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi koʻp jihatdan, soliq siyosati strategiyasining muvaffaqiyatiga bogʻliqdir. Shuning uchun ham bu yerda haqli ravishda mamlakatimizda mustaqil moliyaviy siyosatni «soliq siyosatini oʻtkazish yoʻli bilan shakllantirish» degan fikr bildirilmoqda. Bir vaqtning oʻzida mustaqil moliyaviy siyosatni amalga oshirishda soliq siyosati strategiyasining oldiga qoʻyilishi lozim boʻlgan vazifalar ham shu joyning oʻzida oʻz aksini topgan. Bu vazifalar quydagilardan iboratdir:

- respublikaning budjet tizimini mustahkamlash;
- budjet daromadlarini toʻldirishni taʼminlash;
- amaliy faollikni ragʻbatlantirish.

Agar yurgizilayotgan soliq siyosati strategiyasi ana shu uch vazifani bajarish imkonini bersa, uni sira ikkilanmasdan izchil soliq siyosati taktikasi deb hisoblash va u mustaqil moliyaviy siyosatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qayd etish mumkin.

1. Soliq tushumlari tarkibini tubdan oʻzgartirish.

Yangi soliq siyosati strategiyasi doirasida dastlabki vazifaning bu tarzda qoʻyilishi amaldagi soliq tushumlarining tarkibi zamonaviy davrning talablariga etarli darajada toʻliq javob bera olmayotganini koʻrsatmoqda. Soliq tushumlarini

⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2015-yilning asosiy yakunlari va 2016- yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi - 2015.

tubdan o'zgartirish, bir tomondan, saqlanib qolishi mo'ljallanayotgan soliq tushumlarining o'zaro nisbatini ancha o'zgartirishni talab qiladi.

2. Resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish.

Qo'yilgan bu vazifa birinchi vazifaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Chunki resurslar va mol-mulk solig'ining rolini oshirish sari yuz tutish, o'z navbatida, soliq tushumlari tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Boshqa bir tomondan resurslar va mol-mulk solig'ining rolini oshirish to'g'risida aniq vazifa belgilangan ekan, bu narsa bizning sharoitimizda hamon resurslar va mol-mulkdan etarli darajada samarali va oqilona foydalanib kelinmayotganini bildiradi. Bu yerda resurslar va mol-mulk solig'ini rolini oshirishdan ko'zlangan maqsad ana shu soliqlar yordamida ulardan samarali va oqilona foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir.

3. Jismoniy shaxslardan soliq undirilishining progressiv tizimini joriy etish.

Yangi soliq siyosati strategiyasi doirasida bu vazifaning qo'yilishi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mexanizmida bir necha kamchiliklarning borligi, amaldagi soliqqa tortish mexanizmi jismoniy shaxslarning faollik darajasini oshirishga etarli darajada ta'sir ko'rsatmayotganligi, bu mexanizmni davr talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirishning zarurligi bilan belgilanadi. Gap bu yerda jismoniy shaxslar daromadlarining ortib borishi bilan to'lanadigan soliq summalarining ham ortib borishi to'g'risida emas, balki ulardan soliq undirishning ilg'or tizimini joriy etish to'g'risida ketayapti. Bu ilg'or tizimining joriy etilishi jismoniy shaxslar va budjetning manfaatlariga baravar mos kelishi, jismoniy shaxslarning mehnat faoliyatini faollashtirish va o'z mehnat faoliyatini faollashtirish va o'z mehnatlarining natijalaridan manfaatdorligini oshirishga olib kelmog'i lozim.

Aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish siyosatini ya'ni to'g'ri soliq siyosati strategiyasiz amalga oshirishning iloji yo'qligi qayd etilyapti. Ana shunday ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarning barchasi soliq yukining biroz og'irligiga bardosh berishlari kerak. Undan tashqari, yuqoridagi vaziyatdan kelib

chiqqan holda soliq siyosati taktikasining yuritilishi ijtimoiy nochor bo'lmagan aholi qatlamlarida soliq yukining «anchagina» og'ir bo'lishini taqozo etayotganligini ular ham bilishlari shart. Ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutib yurgizilayotgan soliq siyosati strategiyasi jamiyat a'zolarining keskin tabaqalashuviga, aholi daromadlarining asossiz o'sishiga olib kelmasligi lozim. Bu narsa biz tomonimizdan shunday siyosatni doimo ushlab turishni va unga nisbatan e'tiborni biror daqiqa ham susaytirmaslik kerak.

Shu o'rinda korxonalarimizning faoliyatini yuksalishi o'z o'rnida davlat budjeti daromadlarida asosiy o'rin egallovchi soliqlarning o'z vaqtida kelib tushishi korxonalar, jumladan kichik biznes va tadbirkorlarning faoliyatiga chambarchas bog'liqdir.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liqdir. Bu holat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro'y beradi.

Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o'zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo'ladi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarning rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to'liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko'rsatkich ulushi pasayishi sodir bo'ladi.

Hududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, engil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o'рни va ulushi etarli darajada emas. Vaholanki barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa, ijobiy natijalarga erishamiz.

**Respublika YaIMda hududlardagi kichik korxonalarning yalpi hududiy
mahsulotdagi ulushining istiqbolda o'sib borishi (foiz hisobida)⁸**

Respublika hududlari	2000	2005	2010	2015	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi
O'zbekiston Respublikasi	31,0	38,2	52,1	66,1	213,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	48,9	57,9	66,9	248,7
viloyatlar					
Andijon	32,9	38,7	49,9	61,1	185,7
Buxoro	33,0	44,4	51,1	57,8	175,2
Jizzax	37,1	64,4	73,0	79,8	215,1
Qashqadaryo	25,8	38,4	45,8	58,4	226,4
Navoi	21,5	20,9	33,5	46,1	214,4
Namangan	33,4	51,4	75,4	81,4	243,7
Samarqand	44,3	54,5	68,3	78,9	178,1
Surxondaryo	39,1	45,9	64,8	81,7	208,9
Sirdaryo	38,9	58,8	72,5	80,6	207,2
Toshkent	34,0	36,3	45,6	54,9	161,5
Farg'ona	32,0	43,9	64,7	82,3	257,2
Xorazm	34,2	54,2	78,3	81,9	239,5
Toshkent sh.	41,5	54,3	70,2	79,1	190,6

Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin. Bizning hisoblarimizga ko'ra, 2015- yilga, respublika bo'yicha kichik biznesning ishlab chiqarilgan YaIM hajmidagi ulushini 66,1 foizga yetkazish Xorazm viloyati bo'yicha esa bu ko'rsatkichni 81.9 foizga etkazish ko'zda tutilgan, kichik tadbirkorlik korxonalarining yillik

⁸ O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi asosida hisoblandi.

mahsulot ishlab chiqarishining o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan holatdagina amalga oshadi⁹.

Soliq siyosatining turli makroiqtisodiy modellardagi nazariy asosini, 1936 yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns iqtisod fanining butun bir yo'nalishiga-keynschilikka «hayot» bergan va «Bandlik, foiz va pullar umumiy nazariyasi» degan kitobni nashr etgan. Xozirgi keynschilik quydagi nazariy xulosalarga tayanadi:

1. Tovar va resurslar bozorlarida nomukammal raqobat hukum suradi. Binobarin, narxlar pasayish tomon qayishqoq emas: talab kamayganda ishlab chiqaruvchilar o'z mavqelaridan foydalanib, narxlarni avvalgi darajada ushlab turadilar. Narxlar asosan resurslar bozorlari monopollashtirish yuqori darajadali tufayli pasaymayapti.

2. Resurslar narxining tovarlar narxining o'zgarishlaridan orqada qolishi mehnat bozori va sanoat bir qator xom ashyo tarmoqlari (neft va gaz qazib olish) monopollashtirishning yuqori darajadali natijasidir. Shuning uchun narxlar umumiy darajasi o'sganda jamuljam taklifning miqdori o'sadi, pasayganda esa kamayadi.

3. Iqtisodiyot tushkunligi sharoitida ishlab chiqarishni o'stirishga narxlarni anchagina hajmda o'stirishsiz erishib bo'lmaydi (chunki ommaviy ravishda ishsizlik va ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq band qilmaslik mavjud). To'liq bandlikka erishilganda taklifning o'sishiga erishib bo'lmaydi: mehnat resurslarini tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlash mumkin, lekin bunda ishlab chiqarishning umumiy hajmi ko'paymaydi.

Makroiqtisodchilar jamg'arishlarga, import tovarlarga oid soliq va xarajatlarga ham e'tibor qaratishlari kerak. Mikro ma'lumotlarining o'zgarishi bilvosita jamuljam talabga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, masalan, import

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012- yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012- yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. – 230 bet.

tovarlari narxining qimmatlashuvi ko'pincha mamlakat mahsulotiga talabning o'sishiga olib keladi. Soliqlarning ko'payishi, aksincha, investitsiya va iste'mol xarajatlarini qisqartirishga qodir.

4. Pul iqtisodiyotda muhim rol o'ynamaydi. Biroq muomalada pul miqdorining o'zgarishi foiz stavkasiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida investitsiyalar hajmini o'zgartiradi. Muomalada pul massasining o'sishi natijasida foiz stavkasi kamayadi, bu esa tadbirkorlarning investitsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. Pul massasi qisqarganda teskari jarayonlar yuz beradi. Shunday qilib, pul massasi ko'payganda nafaqat narxlar o'sadi, balki haqiqiy ishlab chiqarish kengayadi ham, narxlar va haqiqiy YaMM darajalari o'sishining nisbati iqtisodiyot jamuljam taklif egri chizig'ining qanday kesimda joylashishiga bog'liqdir. Agar chuqur tushkunlik ko'zga tashlansa, ishlab chiqarishning o'sishidan ancha ahamiyatli bo'ladi. Agar haqiqiy vaziyat to'liq bandlik holatiga yaqin bo'lsa, narxlarning o'sishi ishlab chiqarishning o'sishidan ildamlab boradi.

5. Ishsizlik va inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun davlat iqtisodiy jarayonlarga faol aralashishi kerak.

Ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi soliq siyosati strategiyasidir. Soliqlar davlat xarajatlarini o'zgartirarkan, davlat jamuljam talabga ta'sir ko'rsatadi. Tushkunlik vaqtida davlat budjeti kamomadini ishlatish lozim. Yuksalish vaqtida budjet kamomadini qisqartirish lozim. Budjet siyosati bilan bir qatorda avtomat budjet siyosati iqtisodiyotning siklik ikkilanishlarini so'ngidiradigan, ichiga qurilgan barqarorlashtirgichlar tizimiga amal qiladi. Mavjud qonunlarga muvofiq budjetni o'z holicha budjet siyosatiga hech qanday ongli o'zgarishlarsiz bajarish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qodir bo'ladi. Iqtisodiy tushkunlik paytida davlat ongli ravishda budjet kamomatlari siyosatini o'tkazadi (xarajatlarni kengaytiradi va soliqlarni kamaytiradi). Biroq budjet kamomatlari ishlab chiqarishni qisqartirish sharoitida avtomatik ravishda ham yuzaga keladi. Birinchidan, soliq tushumlari hajmi pasayadi, daromad kamayadi, oqibatda, ulardan kamroq soliqlar to'lanadi. Ikkinchidan, ijtimoiy ehtiyojlarga (ishsizlik,

kambag'allik nafaqalar va hokazo) va ehtimol, zarar ko'ruvchi korxonalar uchun dotatsiyalarga (agar bu narsa qonunlarda ko'zda tutilgan bo'lsa) davlat xarajatlari avtomatik ravishda oshadi. Yuksalish davrida teskari jarayonlar yuz beradi: soliq tushumlari o'sadi, ijtimoiy xarajatlar va dotatsiyalar esa pasayadi.

Soliqqa tortish tizimining xarakteri katta ahamiyat kasb etadi: agar soliqqa tortish shkalasi progressiv bo'lsa, unda daromadlarning o'sishi ushbu daromadlarga solinadigan soliq stavkasining ko'payishiga olib keladi, joylashtirilgan barqarorlashtirgichlar esa yanada ta'sirchang bo'ladi

Pul-kredit siyosatidan «inflyatssiya to'liq band bo'lish» ga erishish uchun ham foydalanish mumkin: muomalada pul miqdorining o'zgarishi foiz stavkasiga ta'sir ko'rsatadi, natijada investitsiyalar hajmi-jamuljam talabning eng muhim elementi hisoblanadi. Bunda muomalaning tezlanish miqdori pul taklifining o'zgarishiga teskari yo'nalishda o'zgaradi, bu esa narxlarga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Keynschilar, muomalada pul miqdorining o'zgarishi narxlarning umumiy darajasiga kam ta'sir etadi, chunki pul massasining o'sishi yoki kamayishi pul muomalasi tezligining tegishlicha kamayishi yoki o'sishi bilan kompensatsiyalanadi.

Yuqoridagi fikr muloxazalardan kelib chiqqan holda bu bo'limni yakunlar ekanmiz demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati strategiyasi va taktikasi o'rtasida uzviylik mamjud bo'lib, to'g'ri, ilmiy asoslangan soliq siyosati strategiyasi, soliq taktikasining qisqa muddatlarda bajarilishiga va buning natijasida esa davlat budjetining moliyaviy resurslar bilan ko'proq ta'minlanishiga shuningdek, mamlakatimiz aholisining yaxshi turmush kechirishiga olib keladi.

1.2 O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasining 1991- yil 31- avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunda «shu kundan e'tiboran O'zbekiston

Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi» deb ko'rsatilgan. Qolaversa, davlatning soliq siyosati asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham qayd qilinadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab soliqlar sohasida o'ndan ortiq Qonunlar qabul qilingan edi. Shulardan eng asosiysi O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalar soliqlari to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlarning solig'i to'g'risida»-gi Qonunlari va ularga kiritilgan o'zgartirishlar, to'ldirishlar bo'ldi.

Ammo soliqlarning huquqiy asosi 1997- yil 24- aprelda O'zbekiston Respublikasi qabul qilgan hamma soliqlarni mujassamlashtirgan yagona Soliq Kodeksi bo'ladi. Bu Kodeksning qabul qilinishi soliq siyosatini amalga oshirishdagi katta huquqiy asos yaratdi. Har qanday tadbir, ish, faoliyati ilgari belgilanib, aniqlanib, rejalashtirilib, ishlab chiqilgan siyosat bilan amalga oshiriladi.

Umuman, siyosat deganda, davlatning ilgari rejalashtirib, aniqlab turib amalga oshirgan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Soliq bo'yicha ishlarni tashkil qilish ham shu to'g'risidagi siyosat, deb yuritiladi. Soliq siyosati qabul qilinganligi bois O'zbekiston Respublikasi soliq to'laydigan huquqiy shaxslar soni 1991-1996 yillarda 28 mingdan 171 mingtaga etgan. Shuni aytish kerakki, soliq siyosati davlat xazina siyosatining eng muhim tarkibiy ajralmas qismidir. Demak soliq siyosati moliya siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, unga bog'liq holda rivojlanadi.

Soliq siyosati nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Soliq siyosati-davlatning soliq borasidagi farmon, qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyati yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'zining mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi. Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va

rivojlantirishga, bozor munosabatlarini boshqarishga har tomonlama faol ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlar pul munosabatlarini ifoda etib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy bo'lagi, bozor iqtisodiyotining zaruriy qismidir. Soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun soliq munosabatlari chuqur o'rganilib, undan ilmiy xulosalar chiqarishimiz lozim. Aks holda bunday siyosat katta muvaffaqiyatga erishishi qiyin. Bu sohada «Olmoniyaning soliq siyosati borasidagi tajribasi e'tiborga loyiqdir. Bu yerda har bir yangi soliqni joriy etishdan avval uning loyihasini tayyorlash uchun soliq sohasida ishlovchi 5 nafar olimga 5-6 oy muddat beriladi besh izlanuvchi olimga ishning natijasidan qat'iy nazar mualliflik haqi oldindan to'lab qo'yiladi. Tayyorlangan soliq loyihalarini ko'rib chiqib, yagona loyihani tanlash uchun besh kishidan iborat ekspertlar guruhi ishlab, ma'qul bo'lgan eng yaxshi loyiha parlament tomonidan tasdiqlanadi»¹⁰ Xulosa shuki, loyihaning ilmiy asoslanganligi va to'g'riligiga javobgar shaxs bor, kerak bo'lsa, loyiha muallifi hamma joyda shu soliq bo'yicha maslahatlar hamda tushuntirishlar berib boradi. Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlarga e'tibor beriladi:

1. Har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama yordamlashish.

2. Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlat kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlashi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish.

4. Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.

¹⁰ Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: 2003 yil.

Soliqlardan kompleks foydalanish xalq xo'jaligi tarmoqlarini qayta qurishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishga, xo'jaliklar va aholining tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulning qadirsizlanish jarayonini jilovlab turishga imkon beradi. Pulning qadirsizlanishiga qarshi choralar ko'rish-kam mehnat sarflab topilgan daromadlarga soliq progressiyasini ko'tarish bilan ham amalga oshiriladi.

Soliqlar davlatning moliyaviy manbai bo'lganligidan soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish ham davlatning muhim vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu siyosatni ishlab chiqishning tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o'z qo'lidagi butun kuchni, idoralarni jalb qilib, uni ishlab chiqadi. Avvalo, bunday tashkilotlarga Moliya vazirligi, davlat soliq qo'mitasi va boshqa ilmiy-uslubiy tashkilotlar kiradi. Soliq siyosati strategiyasining izchil va muvoffaqiyatli ishlab ketishi uchun davlat ilmiy-izlanish tashkilotlari tuzib, uning ish yakunlaridan keng foydalanadi. Ana shunday tashkilot Moliya vazirligi qoshidagi ilmiy tekshirish institutidir.

Davlat soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlarni yoki yangi kiritilishi mo'ljallangan soliqlarning mohiyati, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixi chuqur o'rganilishi lozim. Ayniqsa, yangi soliqlar chiqarilayotganda ular ilmiy asoslangan bo'lishi, yirik amaliyotchi mutuxassislari va jamoatchilik o'rtasida erkin bahslashuv asosida biror qarorga kelishi zarur. Bu yerda hech qachon bir soha mutaxassislari fikri bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, chunki soha mutahassislari ham o'z manfaatlarini ko'proq ko'zlab, umumdavlat manfaatlarini ular ko'ra olmasliklari yoki bila olmasliklari mumkin.

Demak, davlat soliq siyosati strategiyasini tayyorlovchi uni to'liq hayotga tadbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosati taktikasini faol yuritishning, bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tishning va uning munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishning muhim omilidir.

Hozirgi davrning soliq siyosati strategiyasining asosi - Respublika Prezidenti Islom Karimovning respublika iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyili, ustuvor yo'nalishlaridir. Respublika soliq siyosati strategiyasi ana shu tamoyillardan kelib chiqib, soliq sohasidagi chora- tadbirlarini amalga oshirmoqda. Soliq siyosati strategiyasining ikki yo'nalishi mavjud:

1. Korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Eng avvalo, korxona va tashkilotlarni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkinligini hisobga olish. Ularning moliyaviy mustaqilligiga, erkin baho belgilashlariga to'sqinlik qilmaslik va budjetga soliq to'lovlari belgilanayotganda faqat demokrotik asosda ya'ni Oliy Majlis tasdiqlab bergan soliqlarni undirishni tashkil etish zarurdir. Hozirgi vaqtda soliqlar bir tomondan korxonalarda taqchil, raqobatga bardosh bera oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni ko'paytirishga, ikkinchi tomonda tovar bahosini oshirib sotgan holda mehnatsiz yoki kam mehnat bilan topilgan daromadlarni cheklashga qaratilmog'i zarur.

2. Soliq siyosatida aholining turli hil guruhlariga nisbatan hilma-hil yondoshishdir. Nochor, kam ta'minlanganlarga iloji boricha soliqdan ko'proq imtiyozlar berish va kam kuch sarflab ko'p daromad oluvchi yoki boshqa engil daromad topuvchilarga nisbatan yuqori progressiyali soliq stavkalarini qo'llashdan iboratdir.

Soliq siyosatining strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilgan bo'lishi zarur. Strategiya uzoq yillarga mo'jallangan soliq munosabatlaridagi muhim yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarning majmuidir. Taktikada esa soliq strategiyasining har bir ma'lum davr(yil, chorak)da amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq tadbiriy choralar ko'rsatiladi.

Mustaqillik davrida soliq siyosatiga e'tibor bersak, davlat, birinchidan, soliq tushumlarining umumiy summasida egri soliqlar salmog'ini oshirib boryapti. Ikkinchidan, butun respublika soliq idoralarini yuqori darajali kompyuterlar bilan ta'minladi. Soliq siyosatini faollashtirish maqsadida quyidagilarni e'tiborni ko'proq qaratish lozim:

1. Soliq sohasida davlatlar yo‘l qo‘ygan ba’zi xatolarning takrorlanmasligi uchun soliq tarixini puxta o‘rganish lozim.

2. soliqqa tortish va uni undirish ishlarining arzonga tushishiga erishish.

3. soliq obyekti aniq, ixcham, to‘lovchilarga va soliq idoralari xodimlariga soliqni hisoblash uchun oson va qulay bo‘lishi zarur.

4. soliqlarning budjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishiga qiziqtirish maqsadida budjetga ko‘p, salmoqli soliq to‘lovchilarga soliqdan ma’lum qismini qoldirish ham maqsadga muvofiqdir.

1991-1994 yillarda soliq siyosati soliq idoralarida ishlab chiqarishning pasayishi, soliq bazasini qisqartirish sharoitida o‘zlarining asosiy e’tiborlarini soliqlarning xazina funktsiyasini bajarishga, ya’ni budjetni kerakli mablag‘lar bilan ta’minlashga, respublika davlat budjeti muvozanatini saqlashga qaratdilar. Bu davrda soliq tizimi soliqlarning ko‘p turliligi va soliq stavkalarining yuqoriligi natijasida korxonalar daromadlarining 45 foizgacha budjetga olib qo‘yish bilan ifodalandi.

Soliqlar korxonalarni kengaytirish va texnika bilan qayta qurollantirishni cheklab, bu sohada soliqlar bo‘yicha belgilangan ko‘plab imtiyozlar ham ish bermadi. Shu davrda korxonalarda soliq yukini kamaytirish, ularni qiziqtirish rolini oshirish talab etildi.

1995-1998 yillardagi soliq siyosatida quydagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

Ko‘p turli soliqlarni qisqartirish chora tadbirlari amalga oshirildi. Yer ostidan foydalanganlik uchun olinadigan soliq moddiy, xom ashyo bazasi jamg‘armasi to‘lovi bilan birlashtirildi. Mol-mulk solig‘i transport egalaridan olinadigan soliq bilan qo‘shib yuborildi. Qimmatli qog‘ozlar operatsiyasi solig‘i tugatildi. Kichik korxonalar uchun tushumdan 10 va 20 foizli yagona soliq joriy etildi. Xom ashyo resurslarini respublikadan chetga chiqarib sotish solig‘i, o‘rmon daromadi va budjetga 20 foizli amortizatsion ajratma, mahalliy budjetlarga 3,5 foizli ajratma bekor qilindi. Fuqarolar daromad solig‘ining shkalasi o‘zgartirildi, progressiv soliq shkalasi joriy etildi. Respublikada tovar

ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida import qilingan alkohol ichimliklar, tamaki mahsulotlariga, avtomobillarga aksiz solig'i va aksiz markalari joriy etildi. Soliqlar tizimidan alohida sohalarni rivojlantirishda foydalaniladi. Bunda qishloq xo'jaligi, xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish ishlarini olib borish, respublikaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qo'shma korxonalar tuzish, kichik ishbilarmonlikni rivojlantirish, mahsulotlarni eksportga chiqarish va import o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarish manfaatdorligini oshirish, aholini ijtmoy himoya qilish, bazaviy sohalar va ustuvor loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari qo'llaniladi.

Demak, respublikada soliq siyosatini takomillashtirish, yangi soliq tizimini joriy etish bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirildiki, bu respublikani iqtisodiy inqirozdan olib chiqdi va xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Mexanizim so'zi iqtisodiyotga texnikadan kirib kelgan bo'lib, undan foydalanishni iqtisodiyotda soliqlarning barcha elementlaridan foydalanishni ifodalaydi. Bu subyektiv tushuncha bo'lganligidan iqtisodiy tamoyillarning mohiyati bilan emas, balki davlatning xohishi bilan bog'liq bo'lib qoladi. Davlat soliq elementlarining istagan turini kiritish yoki bekor qilishi mumkin. Soliq mexanizimi budjet mexanizimi tarkibiga kiradi. Soliq mexanizmi deganda soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obykti, subykti, manbai, soliq stavkasi, to'lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi. Soliq mexanizimi soliq tizimining amaliyotga tadbiq etilishini ifodalaydi. Soliq mexanizimidan foydalanish soliq elementlarining yig'indisidan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan tushunchadir. Bu mexanizm tarkibida soliqlar va boshqa to'lovlar (ajratmalar, yig'imlar) kabi elementlar borligini aytib o'tish zarur. Shu mexanizm tarkibida soliqlar aksariyat uzoq yillar harakat qilsa, ularning elementlari tez-tez o'zgarib turishi mumkin. Demak, soliqlar soliq mexanizmining nisbatan mustahkam, uzoq yillarga mo'ljallangan, kam

o'zgartiriladigan qismi. Ajratmalar, yig'imlar va soliqlarning elementlari tez-tez o'zgarib turadigan, hatto bekor bo'ladigan turidir. Soliq mexanizimini shunday takomillashtirish lozimki, budjetga soliqlar to'liq va o'z vaqtida tushsa, ular bir vaqtning o'zida tovar ishlab chiqarishni kengaytirish va ko'plab daromad olish imkonini, bersin, eksportga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, qat'iy valyutalarga ega bo'lsin. Hozirgi vaqtning soliq siyosati strategiyasi soliq mexanizimini ana shu yo'nalishda takomillashtirilib bormoqda. Bu esa bozor iqtisodiyoti talablariga mos tushib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish imkonini bermoqda. Soliq mexanizmining yo'nalishi soliq siyosatidan kelib chiqadi. Shu sababli soliq siyosati yo'nalishi o'zgarsa soliq mexanizmining keraksiz elementlari chiqarib tashlanadi va yangi elementlar kiritiladi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmaydigan soliqlar (oborot solig'i, sotish solig'i) bekor qilinib, yangi soliqlar (QQS, aksiz va boshqalar) vujudga keldi. Soliq mexanizimiga o'zgartirishlar kiritilib, takomillashtirilib borildi. Uning tez o'zgarishlariga olib keladigan qator omillar mavjuddir. Bularga pulning qadrsizlanishi, iqtisodiy yo'nalish jarayonida yangi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va boshqa qator yangiliklar kiradi.

I-bob bo'yicha xulosa

Biz olib borgan tadqiqotlar jarayonida 1 bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, avvalo mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib belgilanganligidir. Iqtisodiyotimizning globallasuvi va integratsiyalashuvi davrida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy, shu jumladan soliq siyosati strategiyasida va taktikasida ham bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida soliq siyosatining barqarorligini ta'minlash uni takomillashtirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish

va kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarning moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlarni inobatga holda biz tomonimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Soliq siyosati – mamlakat bo'yicha ma'lum vaqtga belgilangan kontsepsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va moliyaviy siyosatining asosiy tarkibi, davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to'lash tartiblarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli tadbirlardir.
2. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Soliq siyosatining vazifasi –bir tomondan davlat budjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlash, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat"¹¹. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda soliq siyosatining amalga oshirilishi natijasida budjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdek vazifaning bajarilishi printsiptial ahamiyatga egadir.
3. Soliq tizimini davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, muvofiqlashtirilgan bu tadbirlari soliqqa tortish bilan bog'liq barcha munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, yoki soddaroq qilib aytganda soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar va qonun me'yorlarining ishlab chiqilishi va joriy etilishidir.
4. Soliq siyosati - iqtisodiy siyosatning umumlashgan ifodasi hisoblanib, har bir davlatda u muayyan davr talab va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilib turadi, chunki soliq siyosati davlatchilik siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
5. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib, respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish, ijtimoiy himoyalangan, erkin bozor iqtisodiyotini boshqarishga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

¹¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –b.52

6. soliq siyosati korxonalarni respublikamiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi ham kerak. Bu yerda gap soliq siyosati taktikasini amalga oshirish natijasida, eng avvalo, respublikamiz ichki bozorining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qilishi kerak. Undan tashqari, soliq siyosati strategiyasi umumiy tarzda korxonalarni mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirmasdan, balki ularni respublikamiz uchun zarur bo'lgan yoki respublikamizdagi talabga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi kerak.

II BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI IZCHIL AMALGA OSHIRILISHNING TAHLILI

2.1. Yuridik shaxslarning iqtisodiy faolligini oshirishda soliq siyosati va uning ahamiyatini ortib borishi

Mahalliy hokimiyat organlari o'zlariga yuklangan vazifalarni amalga oshirishlari uchun tegishli moliyaviy resurslarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu resurslar mahalliy budjetlarda yig'ilib, ko'zda tutilgan maqsadlarga yo'naltiriladi. Mahalliy budjet daromadlarining o'ziga xosligi davlat va mahalliy xokimiyat organlari, mahalliy budjet tizimi tarkibiy qismlarining bajaradigan funktsiyalarining chegaralanishi bilan belgilanadi. Shu orqali mahalliy budjet daromadlarining iqtisodiy o'ziga xosligi belgilanadi, qaysiki ular hududlarda yaratilgan ijtimoiy mahsulotni yaratuvchilar o'rtasida bo'linishi va davlatning markazlashgan pul mablag'lari fondlarining qayta taqsimlanishi asosida tashkil topadi. Mahalliy budjet daromadlari nisbati mahalliy xokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalar ular tomonidan mahalliy soliq va tushumlarni yig'ib olish imkoniyati, hamda yuqori davlat organlarining hududlarga moliyaviy yordam bera olish imkoniyati, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tomonidan olib borilayotgan moliya soliq budjet siyosati bilan bevosita bog'likdir.

Mahalliy budjet daromadlari avvalo korxonalar tomonidan soliqlar asosida tashkil topadi. Davlat mahalliy xokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarning bajarishlari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratadi va shu orqali mahalliy budjetlarni tartibga solib turadi. Yuqori budjetlardan quyi budjetlarga ularning daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish maqsadida beriladigan barcha mablag'lar tartibga soluvchi daromadlarni (yoki soliqlarni) bildiradi. Davlat mahalliy budjetlarni tartibga soluvchi soliqlar sifatida umumdavlat soliqlaridan foiz sifatida ajratmalardan dotatsiya, subventsia yuqori budjetdan beriladigan mablag'lardan keng foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlari daromadlarida tartibga soluvchi soliqlarning salmog'i juda kattadir. Bundan davlatning ko'zlagan maqsadi mahalliy

hokimiyat organlarining mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi manfaatdorligi va javobgarligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari xamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartiblarini va soliq haqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi. Har bir shaxs ushbu Kodeksda ko'rsatilgan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart.

Soliq solish yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va yig'imlar tovar (ishlar, xizmat)-larning yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bulishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'uyishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalardan qat'iy nazar barcha daromadlarga soliq solinishi shart. Soliq imtiyozlarini belgilash adolat tamoillariga mos bo'lishi kerak.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz lozimki, korxonalarimizning faolligini oshirishda hukumatimiz tomonidan soliqlar asosida ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan soliq yuki va soliq stavkalarining yillar davomida pasayib borayotganligi bundan dalolat bermoqda. Agarda quyida keltirilgan jadvallardan buning guvohi bo'lmoqdamiz.

Shu o'rinda biz tomonimizdan Toshkent shahar Yunusobod tuman mahalliy budjet daromadlarini ko'rib chiqib quyida keltirilgan diagramma ma'lumotlarini tahlil qilganimizda mazkur hudud doirasida soliqlarning kelib tushish darajasi ortib ketayotganligini ko'rishimiz mumkin jumladan, davlat budjetiga 2011- yili rejaga nisbatan soliqlarning ortig'i bilan bajarilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek hududlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tushumini baholashda ularning o'z muddatida kelib tushishi, bajarilishi,


ularning korxonalar faoliyatiga ta'siri hamda ularning soliq funktsiyalaridan kelib chiqqan holda rag'batlantirish jarayonlariga ham alohida ahamiyat berilishi qayd etish kerak

Agarda diagrammalardagi ma'lumotlarda barcha soliqlar ortig'i bilan bajarilayotganligi qayd etish kerak. Bu holat mazkur hududda ho'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga alohida ahamiyat qaratilganligidan dalolat berilayotganligi hamda shu o'rinda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining to'g'ri amalqilishidan dalolat beradi.

Biz tahlil etish jarayonida tuman kesimida jami soliqlar ichida egri soliqlarning asosiy o'rin egallashining guvohi bo'ldik. Bunda qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar rejaga nisbatan ortig'i bilan bajarilganligini ko'rishimiz mumkin

2-diagramma

Surxondaryo viloyat Denov tumanida 2015 yil mahalliy budjeti daromadlari tarkibida soliqlarning o'sish darajasi¹²




¹² Diagramma Surxondaryo viloyat Denov tuman Davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Davlat budjetida soliqlar salmog'ini tahlil etar ekanmiz e'tiborimizni tumanning 2015 yil ma'lumotlariga qaratadigan bo'lsak

3-diagramma

Surxondaryo viloyat Denov tumanida 2015 - yil mahalliy budjeti daromadlari tarkibida o'sish darajasi¹³



mazkur yilda soliqlar rejaga nisbatan ortganligini ko'rishimiz mumkin

Bu holatni biz tomonimizdan ikki tomonlama izohlashimiz mumkin. Bir tomondan mazkur hududda yuridik shaxslar sonining ko'payishi va ikkinchi tomondan ular tomonidan davlatimiz oldidagi o'z burchlarini oqilona bajarayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu o'rinda masalaning yanabir qirrasiga o'z e'tiborimizni qaratdik. Biz tomondan malakaviy amaliyat o'tish jarayonida yuridik shaxslar qolaversa, jismoniy shaxslarga nisbatan soliq inspeksiyasida barcha shart sharoitlarning yaratilganligi va ularda soliq to'lovchi va inspektorlarning o'zaro munosabati hisobotlarni topshirish jarayonidagi tezkorlik bu yerda biz moliyaviy hujjatlarning harakati hamda


¹³ Diagramma Surxondaryo viloyat Denov tuman Davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

ularning aksariyatlarini elektron shaklda taqdim etilishini ko‘rdik. Bu holat yana birbor soliq siyosatiga borib taqaladi.

Shunday holat ya’ni mahalliy budjetga soliqlarning tushish salmog‘i tahlil jarayonida yillar davomida ortayotganligi ularda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashlari bir tomondan mahalliy budjetga o‘z ta’sirini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan mahalliy infrastrukturaning rivojiga ham ta’sir ko‘rsatishini shahrimizda olib borilayotgan islohotlar albatta ushbu solikli daromadlar asosida amalga oshirilmoqda desak xato qilmagan bo‘lsak kerak.

4 -diagramma

Surxondaryo viloyat Denov tumanida mahalliy budjeti daromadlarining 2014-2015- yillarda o‘zgarish dinamikasi¹⁴



Soliqlardan kompleks foydalanish xalq xo‘jaligi tarmoqlarini qayta qurishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishga, xo‘jaliklar va aholining tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va pulning qadirsizlanish jarayonini jilovlab turishga imkon beradi. Pulning qadrsizlanishiga qarshi

¹⁴ Diagramma Surxondaryo viloyat Denov tuman Davlat soliq inspeksiyasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

choralar ko‘rish-kam mehnat sarflab topilgan daromadlarga soliq progressiyasini ko‘tarish bilan ham amalga oshiriladi.

Soliqlar davlatning moliyaviy manbai bo‘lganligidan soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish ham davlatning muhim vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Bu siyosatni ishlab chiqishning tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o‘z qo‘lidagi butun kuchni, idoralarni jalb qilib, uni ishlab chiqadi. Avvalo, bunday tashkilotlarga Moliya vazirligi, davlat soliq qo‘mitasi va boshqa ilmiy-uslubiy tashkilotlar kiradi. Soliq siyosati strategiyasining izchil va muvaffaqiyatli ishlab ketishi uchun davlat ilmiy-izlanish tashkilotlari tuzib, uning ish yakunlaridan keng foydalanadi. Ana shunday tashkilot Moliya vazirligi qoshidagi ilmiy tekshirish institutidir.

Davlat soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlarni yoki yangi kiritilishi mo‘ljallangan soliqlarning mohiyati, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixi chuqur o‘rganilishi lozim. Ayniqsa, yangi soliqlar chiqarilayotganda ular ilmiy asoslangan bo‘lishi, yirik amaliyotchi mutaxassisleri va jamoatchilik o‘rtasida erkin bahslashuv asosida biror qarorga kelishi zarur. Bu yerda hech qachon bir soha mutaxassisleri fikri bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, chunki soha mutahassisleri ham o‘z manfaatlarini ko‘proq ko‘zlab, umumdavlat manfaatlarini ular ko‘ra olmasliklari yoki bila olmasliklari mumkin.

2.2. Iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlashda soliq yuki va uning ta‘sirining tahlili


O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirishga doir izchil soliq siyosati strategiyasi olib borish natijasida har yili soliq yukini kamaytirish choralari amalga oshirilmoqda. Eng avvalo, ular ishlab chiqarishga, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlarini va iste‘mol talablarini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, soliqlar va to‘lovlarni birxillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to‘lashga oid

korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikamizda qo'llaniladigan soliq tizimini xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Agar dunyo mamlakatlarida qo'llaniladigan soliq yuklarini izohlovchi statistika ma'lumotlariga murojaat etsak, shuni ko'rish mumkinki, YaIMga nisbatan soliq to'lovlari darajasi turli davlatlarda turlichadir. Bu esa iqtisodiy tartibga solish darajasidagi farqlar, yuritiladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishi, muayyan mamlakatlarning geopolitik joylashuvi va boshqa omillar bilan izohlanadi. Umuman soliq yuki darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Soliqqa tortishning yuqori darajasi-soliqlar salmoqi YaIMning 40 foizidan ortiq (Lyuksemburg, Fransiya);
2. Soliqqa tortishning o'rtacha darajasi- soliqlar salmog'i YaIMning 30 foizidan 40 foizigacha (Daniya, Shvetsiya, Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya);
3. Soliqqa tortishning o'rtachadan pastroq darajasi-soliqlar salmog'i YaIMning 30 foizigacha (Xitoyda (15%), Hindiston, Misr, Malayziya, Janubiy Koreya);

Agarda O'zbekiston respublikasida soliq yukining o'zgarish dinamikasiga e'tibor bersak uning pasayish tendentsiyaga ega bo'lishi va korxonalarimizning faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligidan dalolat beradi. Bu esa aksariyat korxonalarning nihoyatda og'ir moliyaviy axvolidan dalolat beradi. Soliqlarning to'rtinchi guruhiga davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan er solig'i, mol mulk solig'i, suv resurslari uchun soliq, ekologiya solig'i kiradi.



1- rasm YaIM ga nisbatan soliq yukining o'zgarish dinamikasi¹⁵

Bundan tashqari, budjetdan tashkari jamgarmalarga ajratmalar, ya'ni yul fondiga, nafaqa fondiga ansratma va boshka fondlarga ajratmalar. Bu soliqlarning korxona moliyavii iqtisodiy ahvoliga, shuningdek soliq yukiga ta'siri bevositami yoki bilvositami? degan savol tug'iladi.

Iqtisodiyotda soliq yuki darajasining kamaytirilishi soliqlarni hisoblash mexanizmlarini takomillashtirish, fiskal funksiyalarni qisqartirish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish bilan birga davom ettirilmoqda. Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jaryonida soliq strategiyasiga binoan xo'jalik yurituvchi subektlarga nisbatan soliq yukini izchil

¹⁵ 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda birinchi navbatda, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning solmog'ini kamaytirish diqqat markazda turibdi. Buning natijasida korxona ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkoni paydo bo'ladi. Sovet davridagi fiskal siyosat foydaning katta qismini undirilishini va qayta taqsimlanishini ko'zda tutar edi. Foyda soliqining o'ta yuqori stavkalarda olinishi (1990- yilda bu ko'rsatkich 55 foizni tashkil etgan) shunday vaziyatni vujudga keltirdiki, korxonalar o'zi ishlab chiqarishini kengaytirish va texnik jihatdan qayta jihozlashdan manfaatdor bo'lmay qoldi. Aynan shu sababli mamlakatimizda foyda solig'ini kamaytirish soliq taktikasi asosiy maqsad qilib olindi. Natijada, 1995 yilga kelib foyda solig'i stavkasi 38 foizga tushdi, 1999 yilda 33 foizga, 2007 yildan boshlab esa bu ko'rsatkich dunyodagi eng kam darajaga-10 foizga tushirildi. Kelgusi rejalarda – foyda solig'ini yanada kamaytirish mo'ljallangan. Shuni qayd etish lozimki, xalq istemol mollarini, bolalar uchun mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarishni, mahalliy tovarlar eksportini rag'batlantirish maqsadida bunday tovarlar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan foyda soliqining past stavkasi (7 foizgacha) qo'llaniladi.

Ishlab chiqaruvchiga nisbatan soliq yukining kamaytirilishi daromadlarning yashirin holdan chiqib, qonuniylashtirilishi va soliqqa oid tushumlarning muayyan darajada ko'payishiga olib keladi.

Har qaysi davlatning iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiquvchi soliq siyosati bir tomondan davlatning xazinasini(budjeti)ni etarli miqdorda moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashga xizmat qilsa, boshqa tomondan davlat tomonidan iqtisodiyotni oqilona tartiblashning eng qulay va samarali vositasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Soliq siyosatining o'zagini esa soliq strategiyasi va taktikasi tashkil etadi. Soliq strategiyasi va taktikasining mazmuni va yo'nalishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy

– iqtisodiy sohadagi isloxotlarning mazmuni, davlatning iqtisodiy sohadagi belgilab olingan strategiyasi, iqtisodiyotga ta'sir etish usul va vositalarining shakli qolaversa mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga monand holda bog'liq bo'ladi.

Agar, bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishi iqtisodiy sohadagi belgilangan strategik vazifalar va iqtisodiy taraqqiyotning darajasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning soliq siyosatining ustuvor strategik yo'nalishi bilan chambarchas bog'langanligini ko'rish mumkin. Soliq siyosatining ustuvor strategiyasining mazmuni esa soliqlarining rag'batlantiruvchilik rolini oshirish, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini bosqichma–bosqich kamaytirib borish va shu orqali budjet tizimiga tushumlarning barqaror tushishini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu belgilangan strategik maqsadga o'z navbatida soliq stavkalarini pasaytirish, eng kerakli sohalarga yoki mahsulot turlariga soliq imtiyozlarini kengaytirish, bir xil soliq obyektiga qaratilgan soliq turlarini qisqartirish, soliq to'lashning muqobil variantlari (soddalashtirilgan) xillarining joriy etilishi kabi soliq siyosatining taktikalari real voqeylik sifatida qo'llanilmoqda.

Korxonalarda soliq yukini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan barcha ko'rsatkichlar amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda o'rganiladi. Soliq yukini tahlil qilganda shu narsani inobatga olish lozimki, uni faqat firma yoki korxona nuqtai nazaridan emas, balki davlat, korxona va jamoa nuqtai nazaridan ham qarab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy erkinlashtirish orqali davlat zimmasidagi bir qator vakolatlar va vazifalarning quyi zvenolariga ya'ni, o'z–o'zini boshqarishga asoslangan xokimiyat bo'g'inlariga o'tkazilishi, davlatning tegishli organlari tomonidan jamiyat a'zolariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha muqobil tarzda davlat organlari bilan birga ushbu xizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlarning yuzaga kelishi, qolaversa, korxonalar, tashkilotlar va aholi tomonidan bunday xizmatlarning ba'zilarini ularning o'zlari tomonidan moliyalashtirish tashabbuslarining bildirilishi oxir oqibat nafaqat davlat budjeti

daromadlarini, shuningdek, budget xarajatlarini ham erkinlashtirishga pirovardida esa soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga moddiy asos yaratilishiga olib keldi.

Nazariy jihatdan olganda soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish ikki xil natijani keltirib chiqaradi. Birinchisi, shundan iboratki, agar, soliq yukini kamaytirish strategik siyosati bilan bir qatorda uning samarasini ta'minlash bilan bog'liq boshqa chora tadbirlar amalga oshirilmasa, soliq yukining kamaytirilishi budget daromadlarining kamayishiga va ayrim turdagi soliq to'lovchilarda boqimandachilik kayfiyatlarini yuzaga kelishiga olib keladi. Ikkinchi natija shunday bo'ladiki, soliq yukini kamaytirish oqibatida budget daromadlarining yo'qotilishi qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng soliq to'lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o'zlarida qoldirilayotgan mablag'larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo'shimcha soliq obyektining paydo bo'lishi hisobiga nafaqat budgetdagi yo'qotishlar o'zni qoplanadi, balki qo'shimcha daromadlarga ega bo'linadi, ham soliq to'lovchilarning ishlab chiqarish imkoniyati oshadi. Respublikamizda izchil soliq-budget siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog'liq boshqa aloqador chora tadbirlarning ishlab chiqilishi qayd etilgan soliq yukini kamaytirishning ikkinchi natijasi amalda ta'minlanishiga erishilayotganligini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, o'tgan yildagi etti yo'nalishda belgilab olingan ustuvor vazifalarimizning eng dastlabkisi sifatida budget va soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hamda soliq yukini yanada kamaytirilishining belgilanishi qolgan olti yo'nalishdagi vazifalarimiz bilan mantiqiy hamda nazariy-amaliy jihatdan bog'liqdir. Ya'ni, ushbu vazifaning bajarilishi boshqa vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga moddiy zamin yaratadi.

Agar, bu vazifalarni bajarishga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ikkinchi ustuvor vazifamiz - tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish uning ko'lamini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni

jalb qilish uchun zarur sharoitlar yaratishga bir qator soliq stavkalarining kamaytirilishi, ayrim soliq turlarining bekor qilinishi natijasida erishiladi. Soliq yukini kamaytirish o'z navbatida soliq imtiyozlarining kengaytirilishini ham bildiradi. Bu esa xorij investitsiyalarining jalb qilinishi va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni kengaytirishga imkon yaratadi.

Soliq - budjet sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirish o'z navbatida xususiy mulkchilik tarmog'ini kengaytirish, biznes uchun qulay muhit yaratish va uning kafolatlarini mustahkamlashdan iborat uchinchi ustuvor masalani hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har qaysi korxona yoki firmaning bosh maqsadi bozordagi kuchli raqobatga bardosh berib mustahkam o'rtnashish va maksimal foyda olishdan iborat.

Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish hisobiga ularni pul resurs mablag'larining o'zlarida qoldirilishi va ushbu mablag'lardan samarali foydalanish iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilishi bilan birga sotsial sohadagi muammolarni, ya'ni, aholining kam daromadli tabaqasining daromadining oshishiga va ish o'rinlari yaratilib bandlik masalasini ijobiy hal etishga sharoit tug'diradi. Ayni bu holat soliq yukini kamaytirish bo'yicha eng muhim vazifa sifatida belgilangan ishlab chiqarishni faollashtirish omili bo'lgan xarid talabining jadal o'sishini ta'minlash taktik vazifasini amalga oshirishga zamin yaratadi. Bugungi kunda soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish orqali soliq turlarini qisqartirish davlatga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni kamayishiga olib kelishi mumkin. Biroq, bizning respublikamizda aksincha holatni, ya'ni, soliq yuki kamaytirilganligi bilan davlatni tegishli organlari orqali ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning miqdori va sifati oshmoqda. Bunga esa ma'muriy sohadagi isloxlarning samarasi orqali erishilmoqda.

Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirilishi oqibatida ko'zlangan maqsadga erishish nafaqat iqtisodiy usullar orqali, shuningdek, psixologik omillarning ta'sirchanligini ham oshirishni talab etadi. Bu o'rinda

soliq madaniyatini yuksaltirish katta ahamiyatga egadir. Soliq to'lovchilarda va soliq xizmati organi xodimlarida soliq madaniyatini oshirish davlatning soliq siyosati orqali soliq yukini kamaytirishdan ko'zlangan maqsadning asl mohiyatini tushunib etishga imkon yaratiladi.

Vatanning kelajagi uchun jon kuydirish faqat uni sevish, unga tajavvuskor kuchlarga murosasiz bo'lish va qarshi kurashishgina emas, shuningdek, belgilangan majburiy to'lovlarni anglagan holda o'z vaqtida to'g'ri to'lashni hamda davlat tomonidan soliq yukini kamaytirish sabablarini to'g'ri anglab etish xissini o'zida mujassam etishni talab etadi. Ana shundagina soliq tushumlari o'z vaqtida budgetga tushadi, budgetdan xarajatlarni moliyalashtirishda uzilishlarshga barham beriladi, soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar qisqartirilsa, eng muhimi soliq to'lovchida soliq madaniyatini oshirish hisobiga O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlashning ham moddiy ham ma'naviy asoslarining uyg'unlashuviga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda joriy yilda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarimiz bir-biriga mantiqan uzviy holda belgilab berilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda «... avvalo, iqtisodiyotimizni jadal va baqaror rivojlantirish, yurtimizda erkin va farovon hayot barpo etish, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini yaratib berishdan iboratdir».

Soliq tushumlarining darajasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi, balki soliq taktikasidan samarali foydalanishga va uning o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga xam bog'liq bo'ladi. Bu funktsiyalarning ta'siri haqida xo'jalik subyektlaridagi soliq yuki orqali mulohaza qilish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, soliq yordamida tartibga solish - nozik va murakkab jarayondir. U nafaqat korxonalarning soliq og'irligini, balki u yoki bu faoliyatning daromadlilik darajasini, tadbirkorlik faolligining turli tashkiliy-huquqiy rasmiylashtirilishi imkoniyatlarini va boshqa qator omillarni ham belgilaydi.

Xo‘jalik subyektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo‘lib, har qanday soliq siyosati strategiyasining sifat tavsifini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa davlatning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli soliq yukining og‘irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to‘lovlilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, oqilona soliq siyosati strategiyasi, nafaqat asos bo‘luvchi tamoyillar bazasiga bog‘liq holda, balki bu yerda bir qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ham hisobga olingan holda yaratilishi kerak.

Ma’lumki, O‘zbekistonda umumlashtirilgan iqtisodiy hisob-kitoblarning milliy tizimi joriy etilmoqda. Milliy hisoblar tizimini yaratish g‘oyasining mohiyati qayta ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida iqtisodiyotni rivojlantirishning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini aniqlash va bu ko‘rsatkichlarni o‘zaro aloqadorlikda ko‘rishdan iboratdir. Ba’zi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bevosita soliq munosabatlari bilan bog‘liqdir. Buning ma’nosi shundan iboratki, davlat milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish darajasiga qarab amaldagi soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlarini belgilaydi va soliq stavkalarini qayta ko‘rib chiqadi. Iqtisodiy o‘sish past bo‘lsa yoki umuman bo‘lmagan sharoitda soliq stavkalarini oshirishni iqtisodiyot ko‘tara olmaydi. Chunki bunga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar imkon bermaydi yoki aksincha.

Bizning nazarimizda, milliy hisoblar tizimiga va chet el tajribasiga suyangan holda O‘zbekistonda soliq solish samaradorligini baholashning uchta asosiy mezonini ko‘rish mumkin. Bular:

- Soliq imkoniyatining miqdori.
- Aholiga soliq yukining darajasi.
- Soliq yukining umumiy xajmidan iboratdir.

Ayrim mutaxassislar soliq taktikasining samaradorligini YaIMda soliqlarning hissasi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruhdagi mutaxassislar esa soliq yukini to'lovlarning barchasini birlashtirish yo'li bilan hisoblashni tavsiya etadilar. Bunda budjetdan tashqari fondlarga va mahsulotni sotish hajmiga ajratmalar ham soliq yukining tarkibiga kiritiladi.

Bizningcha, keltirilgan uchta asosiy mezonni amaldagi soliq tizimini taxlil qilishda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Davlatning soliq salohiyati deb, mahsulotlar (xizmatlar, ishlar) uchun barcha turdagi soliq to'lovlari, xususan foyda (daromad)dan soliq va shu turdagi ijtimoiy soliqlar majmuasi tushuniladi. Bu ko'rsatkich yalpi qo'shilgan qiymat va iqtisodiyotning sof foydasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Soliq tizimini baholashning eng asosiy, makroiqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib soliq to'lovchilarga soliq og'irligi darajasi, uning miqdoriy bahosi bo'lib esa daromadlar olish darajasi hisoblanadi. Bu darajadan oshish soliq to'lovchiga, oddiy takror ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini ham bermaydi. Mazkur daraja davlatning alohida olingan fuqaroga nisbatan majburiyatlariga ham, shuningdek umuman iqtisodiyotga ham bog'liqdir (masalan, uy-joyga, tibbiy xizmatga, ilmiy-tadqiqot ishlariga va iqtisodiy dasturlarga ajratiladigan dotatsiyalar va boshqalar).

Jamiyat a'zolariga soliq og'irligining taqsimlanish darajasini tavsiflab aytish mumkinki, ishlab chiqarishdagi aksariyat soliqlar, xususan, egri soliqlar tovar tannarxi tarkibiga kiritiladi va pirovard natijada iste'molchi zimmasiga tushadi. Aholining soliq yukini, jon boshiga soliq salohiyatini jon o'rtacha boshiga olinadigan daromadga nisbatan aniqlash mumkin.

Amaldagi soliq tizimini baholashning uchinchi mezoni, umumiy soliq yuki darajasining (yalpi qo'shilgan qiymat shaklida hisoblangan soliq yuki koeffitsientiga tuzatilgan) YaIM hajmiga nisbati shaklida ifodalanadi. Matematik hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, umumiy soliq yukining ulushini umumiy yalpi qo'shilgan qiymat hissasini bo'lib, aholining soliq yuki koeffitsientiga ko'paytmasida ifodalaydi. Izlanishlar natijasida soliqqa tortish

samaradorligini baholash asosiy mezonlarining mantiqiy va matematik o'zaro uzviy bog'liqligi aniqlandi. Demak, soliq yuki darajasining o'zgarishi soliq yuki salmog'i o'zgarishiga doimo to'g'ri proportsional va yalpi qo'shilgan qiymat salmog'i miqdori o'zgarishiga teskari proportsionaldir. Bajarilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida mamlakatning soliq salohiyati 6,4 marta oshgan. Ish haqining har bir birligiga soliq yuki 0.04 so'm bo'lgan.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan uslub asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida soliq yukini aniqlaydi. Shu asosda butun mamlakatning soliq salohiyatini hisoblashda, barcha soliq summasi va to'lovlarining majmui sifatida hisoblash soliq yukini hisoblashda yollangan xodimlar mehnatiga haq to'lashda har bir so'mga barcha soliqlar summasining, shuningdek, soliq yuki salmog'ini, yalpi qo'shilgan qiymat salmog'i ulushi bilan aniqlanib, aholining soliq yuki koeffitsientiga tuzatish (ko'paytirish) kiritish taklif etiladi.

Shu o'rinda, bizningcha, o'ziga xos tarzda qonuniyatning bor ekanligini ham qayd etib o'tishimiz zarur. Bu narsa iqtisodiy (moliyaviy) adabiyotlarda qonuniyat sifatida aks ettirilmagan bo'lsa-da, bizning fikrimizcha, uni qonuniyat sifatida rasmiylashtirishga barcha dalillar etarli va barcha asoslar mavjuddir. Bu qonuniyatni, quyidagi tarzda ifoda etish mumkin: erkin bozor iqtisodiyoti xo'jalik yurituvchi subyektlarga (tadbirkorlarga) nisbatan soliq yukining engilroq bo'lishini taqozo etsa, aksincha, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ular (tadbirkorlar) zimmasiga nisbatan og'irroq bo'lgan soliq yukini yuklaydi. Chunki bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi qanchalik kuchli bo'lsa, davlat budjeti xarajatlarining oshishini shunchalik taqozo etadiki, o'z navbatida soliq yukini oshirishga ehtiyoj tabiiy holatda tug'iladi.

Bizning fikrimizcha, respublikamizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish sur'atlari ko'p jihatdan ana shu qonuniyatning mazmun-mohiyatini tadbirkorlarimiz tomonidan to'g'ri idrok etilishi va uning tadbirkorlarimiz tomonidan tabiiy ravishda qabul qilinish darajasi bilan belgilanadi.

Nazarimizda, yuqorida chiqarilgan xulosalar va biz tomonimizdan bayon qilingan qonuniyat muhim ahamiyatga molik bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini

rivojlantirishga soliqlar, soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq siyosati strategiyasining ta'siri bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilayotgan paytda ular yana tadbirkorlarning markazida turmog'i lozim.

2.3. Soliq islohotlarini amalga oshirishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari

Soliq siyosati amalga oshirish borasida rivojlangan davlatlarda ijobiy tajribalar to'plangan. Ulardagi bu siyosatning izchil amalga oshirilishi davlat budjeti daromadlarini bir me'yorda barqaror o'sishini, xarajatlarning oqilona sarflanishiga olib kelmoqda. Har bir davlatning soliq siyosatining o'ziga xos tomonlari mavjud.

Misol uchun, AQSh ning budjet tizimi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, AQShda milliy daromadning 40 foizi davlat budjeti orqali taqsimlanadi. Shuningdek, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi 20-25 foizni tashkil qiladi.

AQSh budjet tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismi mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Keyingi yillarda jami xarajatlarning 30-35 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda.

Bu davlatning soliq tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u ba'zi bir belgilari bilan boshqa bir soliq tizimlaridan ajralib turadi. Jumladan:

- mamlakat soliq tizimida juda katta boshqaruv apparatining mavjudligi;
- soliq organlari umumiy tuzilishining mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirishning yo'qligi, mamlakat soliq idoralarining uch darajali: federal, shtat va shahar (ba'zan ayrim grafliklar darajasidagi tumanlar) va ularning har birining to'liq mustaqilligidir.

Hozirgi kunda AQSh soliq tizimi takomillashgan bo'lib, bunda soliqlar faqatgina budjetni to'ldirish, ya'ni fiskal funktsiyani bajaribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch elementlariga aylanadi.

1986 yilda AQSh Prezidenti Ronald Reygan boshchiligida soliq islohoti o'tkazildi va bir nechta o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu islohotda hukumat quyidagi masalalarni ko'rib chiqdi:

1. Daromad (foyda) solig'i stavkalari va imtiyozlarini kamaytirish;
2. Defitsitni yo'qotish uchun davlat xarajatlarini kamaytirish;
3. Soliq qonunchiligini qayta ko'rib chiqish;
4. Pul-kredit siyosatini olib borish.

Soliq siyosati sohasida o'tkazilgan ushbu islohot ijobiy natijaga erishdi, ya'ni unga ko'ra ba'zi soliq stavkalari pasaytirildi, imtiyozlar qisqartirildi hamda ba'zi yangi soliqlar joriy etildi.

AQSh moliya tizimining asosiy bo'g'ini federal budget mexanizmi hisoblanadi. Yirik va doimiy tushumga ega bo'lgan soliqlar federal budgetga yo'naltiriladi. Federal xarajatlar umumdavlat xarajatlarining taxminan 60 foizini tashkil etadi. 40 foizi esa shtatlar va mahalliy hokimiyat idoralarining budgetlariga tugri keladi.

Federal budget tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarda olinadigan daromad solig'i 54,3 foiz (yuridik shaxslardan 9,3 foiz, jismoniy shaxslardan 45 foiz), aksizlar 6,3 foizni, sovg'alar va merosdan olinadigan soliq 1 foizni, ish beruvchilar bilan oqimlar tomonidan baravar to'lanadigan ijtimoiy ta'minotga ajratmalar 27,6 foizni, bepul tibbiy yordamga ajratmalar 7 foizni, ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan ishsizlik nafaqalariga ajratmalar 2 foizni tashkil qiladi. Federal budgetning xarajatlar qismi 20 ta asosiy budget toifalariga, shu jumladan, milliy mudofaa, xalqaro ishlar, qishloq xo'jaligi, transport, energetikani rivojlantirish, soglikni saklash, ijtimoiy sug'urta xarajatlariga, davlat qarzi bo'yicha foizlar to'lashga va hokazolarga bo'linadi.

Shtatlarning budgetlariga soliq tushumlarining umumiy hajmida jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i 39 foizni, mahsulot sotishdan olinadigan soliq 49 foizni, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i 2 foizni, foydali qazilmalarni qazib chiqarganlik uchun tabiiy resurslarning mulkdorlari tomonidan to'lanadigan soliq 2 foizni,

litsenziyalanadigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berganlik uchun olinadigan litsenziya yig'implari 6 foizni tashkil qiladi.

Munitsipial ma'murlar jismoniy shaxslarga daromad soliqlari, aksizlar, kompaniyalardan litsenziya yig'implari, kasb uchun soliq, foydali qazilmalarni qazib chiqarganlik uchun soliq, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishlari mumkin. Bu soliqlar ba'zi mahalliy budjetlarda 75 foizga etadi.

AQSh Davlat budjetining daromadlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, hukumat uch bosqichdan iboratligi uchun soliqlarni uch darajaga bo'linishini kuzatish mumkin.

AQSh soliq tizimiga xos bo'lgan rag'batlantiruvchi yondashuv boshqa har qanday tizimga nisbatan kuchliroqdir. Bunday yondashuv faqat iqtisodiyotdagina emas, balki jamiyat hayotida ham ko'zga tashlangan ijobiy tamoyillar va jarayonlarning samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Ma'lum davrlarda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun ayrim soliq turlarining stavkalari kamaytiriladi.

Ma'lumki, AQShda har qanday aktivlar, aktsiyalar, uylar, er uchastkalaridan olinadigan sarmoya daromadlariga soliq solinadi. Uning stavkasi ishlab topilgan daromaddan (maosh, ish haqi, hunarmandlarning daromadlari va shu kabilardan) olinadigan soliqlardan taxminan ikki barobar kamdir. Bu esa ijtimoiy jamg'arilishni rag'batlantiradi. Chunki, ular sarmoyadan daromad olish huquqini beradigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish foydali bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, AQSh federal budjeti daromadlarining asosiy qismini bevosita (to'g'ri) soliqlar tashkil etadi. Shtat va mahalliy hukumat budjetlariga esa bevosita (egri) soliqlar ko'proq tushadi

AQSh federal budjetiga tushadigan daromad solig'i asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu soliqni hisoblash o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bunda oilaviy sharoitning ta'siri alohida e'tiborga olinadi.

Federal budjetda jismoniy shaxslar daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda (budjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta ajratmalari turadi. Bu

ajratmalar ish beruvchi va ishchi o'rtasida teng ikkiga bo'linadi. Yig'im stavkasi har yilgi budjet tizimiga qarab o'zgaradi.

3-jadval.

AQSh federal budjeti daromadlarida solikli
daromadlarning tutgan salmog'i¹⁶

№	Soliq turlari	Budjet daromadlarida tutgan salmog'i (%)
1	Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i	45
2	Ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma	36-37
3	Korparatsiyalar foydasiga soliq	8-10
4	Aksiz	4-5
5	Bojxona poshnilari	1

AQSh federal budjet soliqlari tarkibida, asosan, bevosita (to'g'ri) soliqlar hissasi ko'proqdir. O'zbekiston va AQShning budjet-soliq siyosati o'rtasidagi o'xshashlik jihatida har ikkala budjetga ham muhim ahamiyatga molik bo'lgan soliqlar yo'naltiriladi. Farqli jihatida esa O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida hozirgi kunda bevosita (egri) soliqlar hissasi ko'proq, shu sababli bevosita (egri) soliqlar ham umumdavlat soliqlarida muhim ahamiyatga ega, AQSh federal budjetida esa bevosita (egri) soliqlar deyarli yo'q, chunki mamlakat budjetida bevosita (egri) soliqlarning hissasi kam.

AQShda korporatsiya soliqlari federal budjetdan tashqari shtat soliqlari tarkibiga ham kiritiladi. Hozir bu soliqning stavkasi – 34%, respublikamizda esa – 12% (2006 yilda).

Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari qatoriga kiruvchi Germaniyada budjet-soliq siyosatining samarali mexanizmi yaratilgan. Germaniya budjeti daromad va xarajatlari ma'muriy boshqaruvning uch darajasini o'z ichiga oladi:

¹⁶ Chet mamlakatlar soliq tizimi TMI ma'ruzalar matni

1. Markaziy budjet (Federal budjet);
2. Regional budjet;
3. Mahalliy budjetlar.

1974 yildan boshlab davlat budjetiga ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot fondlari ham kiritilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniyada soliqqa tortish tizimi federatsiyalar, erlar va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Budjet xo'jaligini mustaqil yuritish tamoyillari umumdavlat va erlarning manfaatlarini ko'zlagan holda olib borildi. Natijada hozirgi kunda Germaniya Respublikasida soliq tizimida 40 dan ortiq soliq turlari mavjud.

Germaniyada soliqlar federatsiya, er, qo'shma (federal va erlar bilan birgalikda), munitsipial, jamoa va cherkov soliqlariga bo'linadi. qo'shma soliqlar Germaniya davlat budjetining o'ziga xosligini namoyon etadi. quyidagi jadvalda qo'shma soliqlarning taqsimlanishi keltirilgan:

Germaniya Respublikasida budjetning markazlashmaganligi markaziy budjet vositalari mablag'larini qayta taqsimlanishi bilan emas, balki budjet daromadlari manbalarining qonuniy biriktirilib qo'yilishi bilan amalga oshiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Germaniyada har bir soliq bo'yicha deyarli alohida me'yoriy hujjatlar mavjud. Bu mamlakatda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bevosita (to'g'ri) soliqlar ichida eng muhimi hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, ish haqi, erkin kasb daromadlari, gonorarlari, kapital daromadlari, banklar jamg'armalaridagi foizlar, ijara haqi, xususiy ish faoliyatidan olinadigan daromadlar va boshqalar kiradi.


Germaniyada kapitaldan olinadigan daromad solig'i jismoniy shaxslardan olinib, dividendlar va foizlarga nisbatan hisoblanadi. Budjetdagi jami daromadlarda ushbu soliqning salmog'i 2-3%ni tashkil etadi.

Soliq stavkasi 25% qilib belgilangan. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada – 25%, Yaponiyada – 20%, Italiyada – 30%, Fransiyada – 25%, Shvetsiya – 35%, Ispaniya – 20%, Respublikamizda – 10%ni tashkil etadi. bo'linsa, Germaniyada federal, erlar va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Germaniyada qo'shma soliqlar, ya'ni

bir vaqtning o'zida bir necha budjetga tushadigan soliqlar mavjud. O'zbekistonda esa bunday holat mavjud emas, har bir soliq turi to'lig'icha bitta budjetga tushadi.

Germaniyada QQSning pasaytirilgan stavkasi mavjud. O'zbekistonda esa QQS yagona stavkada qo'llaniladi.

Fransiyada budjet daromadlari tarkibining asosiy bo'g'ini bo'lib QQS hisoblanadi. Soliqning asosiy stavkasi 18,6% bo'lib, eng yuqori stavka 22%ni tashkil etadi. Ushbu yuqori stavka avtomobillar, kinolar, fotomahsulotlar, atir-upalar, mo'ynalar, qimmatbaho terilarga nisbatan qo'llaniladi. Kamaytirilgan soliq stavkasi 5,5% bo'lib, u asosan oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, kitoblar va tibbiy vositalarga nisbatan qo'llaniladi.



2-rasm Germaniya budjetida solikli daromadlarning egallagan ulushi bo'yicha taqsimlanishi

Fransiyada QQS bilan bir qatorda aksiz solig'i ham undiriladi. Aksiz solig'ining ba'zilari davlat budjetiga, ayrimlari esa mahalliy budjetga kelib tushadi.

Fransiya budjetiga mol-mulk solig'i ham katta daromad keltiradi. Mol-mulkka solinadigan soliq obyekt bo'lib mol-mulk, mulkiy huquq va qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Fransiyada markaziy hukumat budjeti daromadlarining asosiy qismini – 93%ini soliq to'lovlari tashkil qiladi. Budjet daromadlarining qolgan qismini maxsus daromadlar tashkil qiladi. Maxsus daromadlarni, asosan, ijtimoiy fondlarga to'lovlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida markaziy hukumat budjet daromadlarining asosiy qismini 70-73%ini soliq to'lovlari tashkil qiladi. Qolgan qismi davlat maqsadli fondlariga to'lovlar tashkil qiladi.

Fransiyada budjet daromadlarining 8,5% ini bevosita (egri) soliqlar tarkibiga kiruvchi neft mahsulotlariga soliq va aksiz solig'i egallaydi va budjet daromadlarining 20-21 %ini tashkil etadi. Bevosita (to'g'ri) soliqlar ichida ikkinchi o'rinni kompaniyalar daromadiga soliq egallaydi. U budjet daromadlarining 8-10%ni tashkil etadi.

O'zbekistonda umumiy budjet daromadlari 2002- yilda 29,8 %ini aksiz solig'i egallagan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 %ni tashkil qilgan. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad solig'i esa budjetning 9,2 %ini egallagan.

Ilmiy izlanishlar shundan guvohlik beradiki, g'arbiy Evropada mahalliy soliqlar tizimida bevosita (to'g'ri) soliqlar katta ulushini tashkil etadi: jami soliq tushumlarining 70-75 % daromad, foyda va mulk hisobidan olinadigan soliqlar ulushiga bevosita (to'g'ri) keladi. Iste'moldan olinadigan soliqlar 3-4 % ni, boshqa soliqlar 20% ni tashkil etadi. Yaponiyada bevosita soliqlar 85 % ni, bilvosita soliqlar esa 15 % ulushni egallaydi.

Bevosita (to'g'ri) soliqlar ichida foyda, daromad hamda turli mulk soliqlari tarkibi ancha farq qiladi: Skandinaviya mamlakatlarida barcha soliq tushumlarining 80-90 %i daromad va foyda solig'i hissasiga to'g'ri keladi; Belgiya, Germaniya, Avstriyada bu ko'rsatkich 50 %dan oshmaydi. Boshqa mamlakatlarda esa hududiy organlar budjetlaridagi soliq tushumlarining asosiy qismi turli shakldagi mulklardan

olinadigan soliqlar hisobidan shakllanadi. Jumladan, Irlandiyada yagona mahalliy soliq hisoblanadi; Niderlandiyada jami soliq daromadlarining 2/3 qismini shu soliqlar tashkil etadi; Yaponiyada 48 %soliq daromadlarini turar-joy binolari uchun soliqlar va 21 % ni ko'chmas mulk uchun soliqlar tashkil etadi.

Hududiy budjet daromadlari mahalliy soliqlar va yig'imlar, soliqdan tashqari to'lovlar yuqori budjetdan ajratmalar hisobidan shakllanadi. Ushbu daromadlar manbalari o'rtasidagi mutanosiblik hududiy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalar, ular tomonidan mahalliy soliqlarni yig'ish imkoniyati, shuningdek markaziy hokimiyat organlari tomonidan hududlarga moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda hududiy budjetlar ulushi davlatning umumiy resurslari hajmida yuqori ulushni tashkil etadi. Masalan, Portugaliyada bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 3 %, Norvegiyada - 15 %, Shvetsiyada esa - 31 % ni tashkil etadi.

Yaponiyada budjet-soliq siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, ushbu mamlakatda bevosita (to'g'ri) va bevosita (egri) soliqlar mavjud bo'lib, bevosita (to'g'ri) soliqlar tarkibiga korporatsiya daromadiga soliq, vorislikka soliq va er solig'i kiradi.

Bevosita (egri) soliqlar tarkibiga iste'mol soliqlari, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, shakar, benzin, neft, aviatsiya yoqilg'isi, chet el valyutasi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, yo'lovchilarni tashish, avtomobil vositalariga bojxona bojlari kiradi.

Ilmiy izlanishlar natijasida shuni qilish orqali Yaponiya bilan O'zbekistonning budjet-soliq siyosatini taqqoslash natijalari quyidagicha ko'rinishga ega ekanligiga amin bo'lamiz:

Soliqlarning budjetga kelib tushishi bo'yicha respublikamizda soliqlar ikkita budjetga kelib tushadi, ya'ni respublika budjeti va mahalliy budjet;

Yaponiyada ham ikki budjet mavjud bo'lib, ularning nomlanishi: davlat budjeti va mahalliy budjetlardir.

Budjetlar daromadlarining shakllanishida soliqlar va soliqsiz to'lovlarning hissasi bo'yicha Respublikamizda davlat budjeti shakllanishida soliqlar va majburiy ajratmalar hissasi 93% ni tashkil etsa, soliqsiz to'lovlar hissasi 7%dir.

Yaponiyada davlat va mahalliy budjetlarning daromad qismi quyidagicha: soliqlar hisobiga 64%, soliqsiz to'lovlar hissasi hisobiga 36%, mahalliy budjetlarda esa 25% foizgacha soliqsiz to'lovlar hisobiga budjet daromadlari qoplanadi.

Yaponiya davlat budjeti daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi boshqa rivojlangan davlatlarnikiga nisbatan birmuncha pastroq ko'rsatkichga ega. Soliqsiz to'lovlar va boshqa daromad manbalari 15 % atrofida ulushni egallaydi. Ayniqsa, mahalliy budjetlar hududiy imkoniyatlaridan kelib chiqib soliqsiz to'lovlar hajmini 25 %gacha ko'rsatkichni ta'minlaganligini ijobiy holat, deb baholash mumkin. Bizning Respublikamizda ham mahalliy obligatsiyalar chiqarish orqali budjetning soliqsiz daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlari mavjud.

Rivojlangan davlatlar budjet-soliq siyosati borasida to'plangan tajribalardan ko'rinib turibdiki, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mamlakatda olib borilayotgan moliya siyosatining yo'nalishlariga bog'liq. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rivojlangan davlatlarda ham davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar hisobidan tashkil etilib, ularning YaIMdagi ulushi o'rtacha 80-90%ni tashkil etadi. Bu davlatlarda davlat budjeti ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Rivojlangan davlatlarda budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash bo'yicha aniq bir mezonlar ishlab chiqilganki, bu mezonlar daromadlar va xarajatlarning muvofiqligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda. YaIM tarkibidan davlat budjetiga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorining aniq me'yoriy chegarasi belgilanganki, bu soliq siyosatini barqaror rivojlantirish uchun va iqtisodiyotda bir tekis o'sish holatlarini ta'minlash uchun asos bo'ladi va davlat budjeti xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat budjetining daromad qismini rejalashtirish jarayonida xalqaro amaliyotda mavjud usul va tartiblarni qo'llab, soliq to'lovchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, aniqroq ta'kidlaydigan bo'lsak,

soliq to'lovchining normal faoliyat yuritishi uchun uning oborot mablag'lariga jiddiy ta'sir etmaydigan miqdorda soliq undirish mexanizmini qo'llash maqsadga muvofiq degan fikrdamiz.

II bob bo'yicha xulosa

Yuqorida tahlillar asosida shu narsani qayd etishimiz lozimki mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona soliq siyosatining samarasini Biz yuqorida Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman soliq inspeksiyasi materiallari asosida tahlil jarayoni buning yaqqol guvohi bo'ldik. Bu holat avvalo mahalliy budjet daromadlarining yildan yilga ortishi mahalliy joylarda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun barcha shart sharoitlarning yaratilganligi ularning imkoniyatlari kundan kunga ortib borayotganligidan dalolat bersa ikkinchi tomondan ushbu hatti harakatlar zaminida aholining turmush darajasini yaxshilash ekanligini unutmashimiz ya'ni hukumatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaning soliq siyosati orqali qo'yilganligini qayd etish lozim. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Soliq siyosatini yuritishda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar zaminida mahalliy joylarda yuridik shaxslarga nisbatan e'tiborni kuchaytirishimiz, qolaversa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning sifat nuqtai nazaridan sonining ortishiga e'tiborni kuchaytirish lozim;

2. Yuqoridagi holat o'z o'rnida mahalliy joylarda davlat budjeti daromadlarining ortishiga olib kelishini unutmashimiz darkor, bu esa o'z o'rnida mahalliy budjet harajatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun sharoit yaratadi;

3. Joylarda soliq siyosatini olib borishda unga ta'sir etuvchi barcha omillarni inobatga olish kerak. Bu vazifa bir tomondan faqatgina soliq inspeksiya xodimlarini emas balki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ham asosiy vazifasi ekanligini joylarda tashkil etilayotgan seminarlarda ularning yodiga solinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki hukumatimiz tomonidan ularga nisbatan yaratilayotgan shart sharoitlarni unutmashimiz kerak;

4. Soliq siyosatini yuritish jarayonida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan o'zimizning mahalliy hamma tomonlama mos keladigan tomonlarini amalda qo'llashimiz lozim.

III BOB. MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

Soliq siyosati turli xil siyosiy muammolar bilan to'qnash keldi. chunki, hukumat faoliyati, makroiqtisodiy barqarorlashtirishdan tashqari, barqarorlashtirish vazifasiga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa maqsadlarni ham ko'zlaydi. Soliq siyosatidan juda tez-tez soy siyosiy natijalarga erishish uchun foydalanishadi. Soliq yukining kamayishi, davlat xarajatlarining ko'payishi odatda turli xil saylovoldi tadbirlari boshlanishi bilan muvofiq kelishi avvaldan ko'zga tashlanib keladi. Bundan tashqari, budget siyosati doimo hammaning ko'z o'ngida: saylovchilar madadiga tayanmoqchi bo'lgan siyosatchilar, hatto buni iqtisodiy zarurat talab qilgan taqdirda ham, soliqlarni ko'paytirishga yoki ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni kamaytirishga jur'at eta olishmaydi.

Natijalarning turlicha - soliq siyosatini amalga oshira borib, hukumat hamma uchun imkoniyatlarning mavjud ekanligi to'g'risida bayonot beradi. Biroq imkoniyatlarning tengligi ulardan hammaning ham foydalana olishi mumkinligidan dalolat bermaydi. Yagona iqtisodiy manfaatlar mavjud bo'lmaganligi uchun hozirgi jamiyat nihoyatda rang-barangdir. Hozirgacha mamlakatlarda, hatto yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ham tengsizlik mavjuddir. Soliq siyosati tashqi tomondan qanchalik demokratik bo'lishiga qaramasdan jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasida farq bo'lganligi uchun hammani bir xil tarzda qanoatlantira olmaydi. siyosat, eng avvalo, kapital egalariga, ko'proq ta'minlangan guruhlariga qulayliklar tug'diradi va ular qo'shimcha afzalliklarga ega bo'ladi.

Iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishdagi ziddiyatlar. Soliq siyosati yordamida tartibga solishdan foydalangan holda davlat umummilliy maqsadlarni hisobga olib ayrim tarmoqlarda, iqtisodiyotning sohalarida va mamlakatning ayrim mintaqalarida kapitalning jamg'arilishini rag'batlantiradi. Bir vaqtning o'zida u xo'jalikdagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosiblikni

susaytirishga harakat qiladi. Tadbirkorlarning bir guruhi uchun qulay soliq muhitini yaratib berib, ularning ikkinchi bir guruhiga zarar etkazadi va ularning noroziligiga sabab bo'ladi. Xuddi ana shunday holat AQShda butun sanoat uchun soliqqa tortishni tenglashtirish maqsadida sanoatning qazib chiqaruvchi tarmoqlari uchun qazilma boyliklariga nisbatan ustamaning keskin qisqartirilishi natijasida sodir bo'ldi. Tadbirkorlarning umumiy manfaatlariga javob beradigan bu tadbir oldin xuddi shu imtiyozdan foydalanib kelganlarning, ayniqsa, neft kompaniyalarining noroziliklariga sabab bo'ldi.

Budjetni to'ldirishni ta'minlashning iqtisodiyotga ham, jamiyatga ham zarar keltirmaydigan vositalari faoliyatini samarali ishlashini ta'minlash zarur. Soliq tizimi barcha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan bir xildagi munosabatga moslashishi, bunda iqtisodiyot subyektlari daromad (foйда) to'g'risidagi tasavvurlaridan kelib chiqib, qaror qabul qilishga majbur bo'lgan holatlar yoki soliq tizimi tomonidan majbur qilinadigan jarima, jazo kabi mexanizm ta'sirida soliq to'lovchilar adolatsiz deb hisoblab, ularning soliq qonunlariga rioya etmasliklarini yuzaga kelishiga omil bo'lmasligi kerak.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida bozor iqtisodiyotiga asoslangan qator mamlakatlarda soliq tizimlari islox etildi. Bunda, mazkur mamlakatlardagi soliq isloxlari asosan uch yo'nalish ya'ni:

- jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan daromad soliqlari tarkibi, soliqqa tortish stavkalarini tenglashtirish, shuningdek, imtiyozlar hamda alohida shart-sharoitlarni tugatish hisobiga soliq bazasini kengaytirish;

- qo'shilgan qiymat solig'iga tortishda qator tovarlar va xizmatlar is'temolini qamrab oluvchi soliqqa tortish bazasini kengaytirish;

- aksizlar stavkasini oshirish kabilarga yo'naltirilganligini ta'kidlash lozim.

Bunday soliqqa tortish isloxlarni amalga oshirishda quyidagi maqsadlar bajarilishini ta'minlash nazarda tutilgan:

- iqtisodiy rivojlanishga soliqlarning salbiy ta'sirini kamaytirish;

- iqtisodiyot subyektlari uchun faoliyat yuritish shart-sharoitlarini tenglashtirish;

- soliqqa tortishni soddalashtirish.

Keyingi yillarda mazkur yo‘nalishlarga asoslangan soliq isloxlari qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ham amalga oshirila boshlandi. Soliq isloxlarning strategiyasini to‘g‘ri tanlash bozor munosabatlariga o‘tayotgan mamlakatlarda birmuncha qiyinroqdir. Shuning uchun ularning quyidagi:

- soliq islohotlari - bu uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lib, bir laxzada amalga oshadigan voqeylik emasligi;

- soliq tizimining budget sarf-xarajatlarini qoplash uchun daromadlarning belgilangan xajmi kelib tushishining samarali vositasiga aylanishini ta‘minlash;

- soliq tizimi gorizontal adolatni ta‘minlashi;

- yuqori, o‘rta va quyi daromadga ega subyektlarni soliqqa tortish jarayonida jamiyatda daromadlarning adolatli taqsimlanishi ta‘minlashda tassavurlarning o‘zaro mos kelishi kabi tamoyillarga asoslanganligi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, yana bir muhim vazifalardan biri soliq tizimining barqarorligini ta‘minlash hisoblanadi. Masalan, xorijiy investorlar o‘z kapitallarini yangi ishlab chiqarish yaratilishi, mavjud ishlab chiqarish bazalarini kengaytirish, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar shaklida kapital qo‘yishlariga qulay shart-sharoit yaratish lozim.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda budget daromadlarini shakllantirish manbasi sanaladigan soliq tizimini takomillashtirish shunday obyektiv omillar bilan belgilanadiki, bunda xo‘jalik munosabatlari shakllanish jarayoniga va soliqqa tortishning ijtimoiy-iqtisodiy chegaralarini belgilashga davlat aralashuvi zaruriy chora sifatida qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarini kamaytirish yo‘lida doimiy izlanishlar olib borilmoqda, buning oqibatida, bir tomondan, soliq daromadlariga bo‘lgan ehtiyojning

qisqarishi, ikkinchi tomondan esa mavjud tizim samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuni qayd etish kerakki xorijiy iqtisodchilarning fikr-mulohazalariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan asosiy soliq muammolari quyidagilardan iboratdir:

- soliq tizimini soliq to'lovchilarning tushunishlari, shuningdek, soliq organlari samarali boshqarishligini ta'minlash murakkabdir. Bu esa, muqarrar holda ortiqcha ma'muriy sarf-xarajatlarga olib keladi hamda soliqlardan bo'yin tovlashning "takomillashgan" usullarini yuzaga keltiradi;
- shaxsiy daromad solig'iga tortish soliq yukining adolatsiz taqsimlanishi bilan izohlanadi, chunki daromadlarning ko'pincha turlicha darajada soliqqa tortilishi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq to'lovchilar tomonidan norozichiliklarni va soliqlarning yuqori stavkalarda qo'llanilishini keltirib chiqaradi va fuqarolarning soliq axloqlari asoslarining buzilishiga sabab bo'ladi;
- qarorlar qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Soliqqa tortishning mazkur guruhiga mansub subyektlarning ishga bo'lgan rag'batlarini yo'qqa chiqaradi, ularning xufyona iqtisodiyotga bo'lgan qiziqishlari ortishiga olib keladi, ayniqsa, jamg'armalarni to'plashda qiyinchiliklarga duch kelinadi;
- soliqqa tortish iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatiga ko'ra emas, balki soliqqa tortish oqibatlari bo'yicha mablag'larni investitsiyalashga va balansni qayta qurishga majbur etadi. Bu esa, o'z navbatida, kapital qo'yilmalar sifatiga va chegaralangan resurslarni taqsimlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- shaxsiy daromadni soliqqa tortish bilan iqtisodiyot subyektlarini soliqqa tortish stavkalari o'rtasida katta farq oqibatida subyektlar inkorporatsiya qilish to'g'risidagi qarorini qabul qilishga majbur bo'ladi. Dividendlarni diskriminatsiya qilish shunga olib keladiki, investitsiyalarni ularga nisbatan zayom mablag'lari hisobidan moliyalashtirish arzonroq bo'lib qoladi.

Keltirilgan jihatlarida soliq tizimlarning takomillashmaganligi namoyon bo'ladi. Soliqlar orqali davlat xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatlarining kamayishi, shuningdek, tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanishga bo'lgan talab oqibatda mazkur muammoni hal etishning dolzarbligini oshirdi.

Shunday qilib, O'zbekistonda budjet daromadlarini shakllantirishni ta'minlash va xalqaro soliq siyosati muammolari o'zaro umumiylik hamda o'ziga xoslikka ega ekanligini hisobga olgan holda, xulosa qilish mumkinki, egri soliqlar ulushining oshishi jarayoniga bir tomonlama baho berish mumkin emas. Aslida soliq tizimlarining takomillashib borishi shuni ko'rsatmoqdaki, egri soliqqa tortish talab va taklif mexanizmiga ta'sir etishi orqali raqobatni buzuvchi omil sanaladi. Bizga ma'lumki, raqobatli bozor tizimi resurslarni shunday tovarlar va xizmatlar ishlab chig'arishga yo'naltiradiki, ularga hammadan ko'ra ko'proq jamiyat ehtiyoj sezadi, aynan shu faoliyat rivojiga egri soliqqa tortish mexanizmi salbiy ta'sirga ega bo'ladi.

Ayni vaqtda alohida ta'kidlash lozimki, albatta egri soliqqa tortish orqali kechayotgan tub tarkibiy o'zgarishlar qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echilishi omili bo'lmoqda.

Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda soliq tizimi orqali budjet daromadlarini shakllantirishda xalqaro soliqqa tortish amaliyotida shakllangan barcha afzalliklardan o'ziga xos tarzda foydalanishning eng ma'qul bo'lgan mexanizmi faoliyatini yo'lga qo'yish davr talabidir. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolar orasida soliqlar yordamida amalga oshiriluvchi, budjetning daromad qismini shakllantirish dolzarb bo'lib hisoblanadi. Soliqlar - bu davlat tomonidan ko'rsatiluvchi xizmatlar evaziga to'lanadigan haqdir.

Biroq, soliqlar mamlakatda biznesning rasmiy tarzda faoliyat yuritishi va ravnaq topishiga g'ov bo'lmasligi lozim. Soliq to'lovchilarning manfaatlarini to'la qonli tarzda hisobga olmaslik (soliq yukining haddan ziyod og'irligi, soliq munosabatlaridagi tushunmovchiliklar), nooqilona soliq siyosati, oxir oqibatda iqtisodiyotda jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jumladan, samarasiz soliq siyosati taktikasiga nisbatan ishbilarmonlar doirasi quyidagi ko‘rinishda aks javob qaytaradilar:

- soliq imtiyozlarini yoqlash;
- turli xil yo‘llar bilan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash (hisobotlarni soxtalashtirish va shu kabilar);
- ishlab chiqarish xajmlarini imkon darajasidan ancha qisqartirish.

Bu holatlarning barchasi, o‘z navbatida iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarining sekinlashuvi, soliqqa tortish bazasining kamayishi va o‘z navbatida budget tushumlarining qisqarishiga olib keladi.

Shuning uchun ham, soliq siyosati taktikasi iqtisodiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilari-sotuvchi va xaridorlar, tadbirkorlar va yollanma ishchilar, hamda jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan xolda o‘tkazilishi lozim.

Rivojlangan davlatlardagi tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bir paytning o‘zida soliq imtiyozlari va soliq stavkalarini pasaytirish siyosatini olib borishi natijasida, ushbu davlatlarda ish faolligi sur‘atlari keskin darajada o‘ydi, soliq tushumlari esa 1,5-2,0 barobar oshdi. Yuqoridagi fikrlarimizdan ham ko‘rinib turibdiki, soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasi bir-biri bilan uzviy bog‘langandir. Ushbu uzviylikni to‘g‘ri ta‘minlash esa asosan soliq munosabatlarini ilmiy va amaliy to‘g‘ri tashkil qilishdir.

Soliqlar davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida davlat budjeti ixtiyoriga jismoniy va huquqiy shaxslar tomonidan yo‘naltiriladigan ekvivalentsiz majburiy to‘lovlar bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Soliqlarning sotsial-iqtisodiy mazmuni, ichki tarkibi, vazifalari uning qator bajariladigan funktsiyalari orqali aniqlanadi. Ularning tarkibida eng muhimlari - daromad to‘plash va rag‘batlantirish, yoki o‘zgacha, ular bir-biriga qarama-qarshi funktsiyalar deb hisoblanadi.

Agar daromad to‘plash funktsiyasiga katta e‘tibor berilib, soliq to‘plash kuchaytirilib yuborilsa, ishlab chiqarishga salbiy ta‘sir qiladi, tadbirkorlik faoliyati chegaralanadi. Masalan, qadimgi Misr davlatida fuqarolar davlatga

olingan hosilni 13 qismini to'laganlar. Ptolomey davlatga hukmronlik qila boshlagan davrda bu to'lov xajmini 1G'2 qism qilib belgiladi. Tarixda yozilishicha ushbu o'zgarish qadimgi Misr davlatini emirilishiga asos bo'lgan.

Ushbu ma'lumotlar soliqlarning juda ham yuqori va juda past bo'lishi jamiyat talabiga to'g'ri kelmasligidan darak beradi. Shu sababdan soliqlarning eng maqbul (optimal) darajasini aniqlash muammosi soliqlar paydo bo'lganidan boshlab muntazam ravishda ilmiy va amaliy izlanishlar mavzui bo'lib kelgan.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, soliq darajasi xamma davlatlarda yoki bir davlatni o'zida har xil davrlarda bir xil bo'lishi mumkin emas. Uning darajasi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ahvoriga bog'liq. Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida soliq sifatida ichki yalpi mahsulotning (YaIM) 30-45% gachasi davlat budjetiga o'tkaziladi.

Oxirgi yillarda bir qator rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotga soliq yukini kamayganligini kuzatish mumkin. Bu ko'rsatkichlar AQSh, Germaniya, Yaponiyada 25-30 % ga to'g'ri keladi. O'zbekistonda iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliq siyosati strategiyasini asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng soliqlarning fiskal funktsiyasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ustivor darajada rivojlanib ketdi. Natijada soliq yuki oshib bordi va ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir qila boshladi. Bu hol o'z navbatida qator kichik korxonalar faoliyatini to'xtatib qolishiga sabab bo'ldi. Iqtisodni boshqarishda yangi soliq siyosati strategiyasiga o'tishga to'g'ri keldi.

Iqtisodiyotga umumiy soliq yukini kamaytirish siyosati taktikasi xozirgacha davom etib kelmoqda. Soliqlar yig'indisini YaIMga nisbati 2004-yilgi 31,4 % o'rniga 2005- yili 28,7 %ni tashkil qilib, 2,7 %ga kamaytirish imkonini berdi. Ma'muriy isloxlarni amalga oshirish, xususiylashtirishni faollashtirish, faol investitsion siyosatni olib borish orqali iqtisodiyotni barcha tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, yanada qulay investitsion muxitni shakllantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotning

eksport saloxiyatini va mahsulot eksportini kengaytirish uchun samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bilvosita soliqlar korxonalar faoliyatiga xolis pozitsiyadadir, degan nazariyadan kelib chiqib, respublikamizda ularni fiskal ahamiyatiga qarab katta e'tibor berilmoqda. Soliq solinadigan bazalarni aniqlashda, soliq summasini hisoblashda, budjetga undirilishda, imtiyozlar berishda qator kamchiliklar mavjud:

1. Bular qatoriga qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) to'laydigan ayrim korxonalar faoliyati xususiyatlarini qisobga olmaslik ham kiradi. Ayrim korxonalarda faqat o'z faoliyati natijasida yaratilgan qo'shilgan qiymatgina soliqqa tortilmay, balki mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan xom-ashyo bo'yicha ham QQS to'lash;

2. Olingan daromadni emas, kutilayotgan daromadni soliqqa tortish;

3. Aksizosti tovarlarning realizatsiyasidan QQS undirish chog'ida, soliqqa tortish obyektiga aksiz summasini qo'shilishi

4. Birlamchi extiyojga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini soliqqa tortish va xokazo.

Masalan, bular tarkibida mahsulotni yetkazib berish davrida QQSning hisoblanishi, hali kelib tushmagan mablag'lar uchun korxona xom-ashyo materiallarini QQS to'lamaydigan korxonalardan sotib olgan sharoitda, aylanma mablag'lar hisobidan QQSning to'lanishi natijasida ularning (aylanma mablag'larning) bir qismi cheklanishiga olib kelmoqda. Jo'natilgan tovarlar uchun mablag'lar o'z vaqtida kelib tushmasligi natijasida QQS bo'yicha boqimanda miqdorlari ko'payishi, boqimanda hisobidan penya hisoblab olinishi, korxonalarning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamalakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyat hayotining barcha soxalari qatorida iqtisodiy sohada ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, iqtisodiy tizimning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan soliq tizimidagi isloxotlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekistonda soliq tizimida isloxotlar amalga oshirildi emas, balki soliq tizimi

yangidan yaratildi deb aytish ham mumkin. Hozirgi kunda soliq tizimini rivojlanishida asosiy e'tibor soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirishga qaratilmoqda. Soliq tizimini takomillashtirish borasida so'ngi yillarda ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, foyda soliqni stavkasi va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq stavkalarining bosqichma-boich kamaytirilganligi aholi va huquqiy shaxslar ixtiyorida qoluvchi mablag'lar so'mmasini ko'payishi ko'rinishida qo'shimcha investitsion resurslar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ma'lumki, xususiy sektordagi tijorat korxonalari faqat o'z-o'zini qoplash va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash asosida ish yuritadilar. Bunda tadbirkor barcha ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan holda bank kreditlari kabi jalb qilingan resurslardan ham foydalanishi mumkin.

Soliq tizimini takomillashtirish jarayoni davom etmoqda va bu jarayon islohotlarni amalga oshirishdagi pirovard maqsad – xalq farovonligini oshirishga qaratilgandir. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik subyektlarini soliq tizimi orqali ularning faoliyatini rag'batlantirish borasidagi soliq siyosatining muhim yunalishlaridan biri sifatida soliq yukining yil sayin kamayib borayotganligidir.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga yotgan barcha davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston xam xorijiy sarmoyalarni kirib kelishidan manfaatdordir. Chunki xorijiy sarmoyalarning doimiy jalb qilinishi mamlakat iqtisodiy saloxiyatini yosishi, axolining farovonligini yaxshilashning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish aloxida axamiyat kasb etadi. Respublikamizda xorijiy investitsiyalar orqali mamlakat iqtisodiyoti oldidagi bir qator dolzarb vazifalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- avvalo, iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun muhim bo'lgan yirik loyixalarni moliyalashtirish imkoni tug'iladi;

- zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb qilinishi natijasida korxona raqobatbardosh, jaxon andozalariga mos mahsulot etishtira oladi;

- respublikamizning eksport imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘l ochiladi va milliy mahsulotlarni jaxon bozorida sotish tajribasini orttirishda yordam beradilar;

- yangi ish joylari tashkil qilish va axolining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash mumkin;

- xorijning ilg‘or tajribasini joriy etish va shu orqali mexnat unumdorligini oshirish imkoni yaratiladi.

Yuqoridagi vazifalarni xal etishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ular ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy rag‘batlantirish juda muxim hisoblanib, xozirgi kunda respublikamizda xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi (qo‘shma) korxonalar faoliyati rivojlantirish maqsadida soliq va bojxona tizimida bir qator imtiyozlar mavjud. Bundan tashqari soliqlarning rag‘batlantirish omillariga soliqlarni to‘lashdan vaqtincha ozod qilish (soliq rag‘batining tipik shakli) xamda soliqlar bo‘yicha erkin iqtisodiy hududlar yaratish kabilar kirib, bulardan xorijiy sarmoyalar uchun soliq imtiyozlari korxonaning soliqqa tortiladigan bazasi (daromadni) kamaytirish maqsadida foydalaniladi;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ayrim soliqlardan vaqtincha ozod qilinishi orqali rag‘batlantiriladi. Bu imtiyoz asosan yangi tashkil etilgan korxonalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yangi korxonalar “oyoqqa” turib olgunga qadar soliqlarni to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod qilinadi;

- eng asosiysi esa xorijiy sarmoyalarni jalb etishda soliqlar bo‘yicha erkin iqtisodiy hududlar yaratish. Bunday hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar uchun soliq solishning maxsus tartibi joriy etiladi. Mazkur hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalarga turli soliq imtiyozlari beriladi. Umumiy qilib aytganda, yuqoridagi soliq rag‘batlantirishlari shu hududlarda amalga oshiriladi.

Soliq yuki va iqtisodiy o'sish orasidagi bog'liqlik masalasi xozirgi davlatimizning iqtisodiy isloxlari davridagi muxim, dolzarb muamolardan biridir.

Statistik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maksimal darajada iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun soliq yuki quyidagicha bo'lishi kerak:

- axoli jon boshiga YaIM 3000\$ gacha bo'lgan davlatlarda (O'zbekiston shu guruxga kiradi) – 15 %;
- axoli jon boshiga YaIM 3000\$ dan 9000\$ gacha bo'lgan davlatlarda– 17 %;
- axoli jon boshiga YaIM 9000\$ dan yuqori bo'lgan davlatlarda – 24 %

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni yakunlar ekanmiz, bu bo'limga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida ko'rib o'tilgan muammolarni echish orqali davlatimiz soliq siyosatini takomillashtirishga erishish mumkin.

3.2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini yanada takomillashtirish masalalari

Respublikamizda xo'jalik yuritish va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllariga o'tish bilan soliqqa tortishning me'yoriy-huquqiy bazasi muntazam ravishda takomillashib bordi. Rivojlanish va oyoqqa turishning murakkab yo'lini bosib o'tib, anchagina barqaror va yaqqol bo'lgan soliq tizimi shakillandi, u so'nggi yillarda davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining muvozanatlashuviga erishish imkonini berdi. Respublika hukumati tomonidan iqtisodiyotga tushadigan soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish izchil siyosatining o'tkazilishiga jamg'armalarni va iqtisodiyotning moddiy (xususiy) sektorining iste'molini oshirish zarurati sababchi bo'ldi, soliqlar va yig'imlarni birxillashtirish esa milliy soliq tizimini xalqaro me'yor va standartlarga muvofiqlashtirish imkonini beradi. Natijada davlat budjeti daromadlari tarkibida soliq tushumlarining YaIMdagi ulushi bir muncha o'zgardi.

Respublika hukumati tomonidan soliq siyosatini yanada takomillashtirish, fiskal funktsiyalarni kamaytirish hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi

ahamiyatini kuchaytirishga doir asosiy omillar sifatida quydagilarni belgilab olindi:

- soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazish, to'g'ridan-to'g'ri soliqlar salmog'ini qisqartirish hisobiga bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish;
- soliqqa tortishning o'xshash bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birxillashtirish, soliq mexanizmini soddalashtirish;
- resurslarni tejovchi ishlab chiqarishlarni rag'batlantirishni ta'minlovchi resurs soliqlari stavkalarini maqbullashtirish;
- yig'iluvchanlik darajasini oshirish va boshqa zaxiralar hisobiga soliq solish bazasini kengaytirish.

Soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga o'tkazish, bilvosita soliqlar ulushini oshirish. Bevosita soliqlar salmog'ini kamaytirish hisobiga bilvosita soliqlar ulushini oshirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga o'tkazish bevosita soliqlar korxonalar hamda fuqarolarning moliya-xo'jalik faoliyatiga, ya'ni ularning daromadlari xajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bevosita soliqlarning kamayishi bilan ishlab chiqarishning rivojlanishi rag'batlantiriladi, tegishlicha soliqqa tortish bazasi kengayib, budjetga tushumlar ortadi. Bevosita soliqlar stavkalarini kamaytirish va bilvosita soliqlarga tortish bazasini kengaytirish orqali bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, soliq stavkalarini yanada ko'proq pasaytirish yo'li bilan ayrim yo'nalishlar eksport, xorijiy investitsiyalar va boshqalar rag'batlantiriladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiya qilishni rag'batlantirish, xo'jalik subyektlari va aholi uchun soliq yukini izchil ravishda kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosat yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish hamda Davlat

budjetining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Nomi yuqorida keltirilgan qonun va qaror ham aynan shu maqsadga yo'naltirilgan.

Sir emas, keyingi yillarda mamlakatimizda soliq yuki bosqichma-bosqich ravishda yengillashtirib borilmoqda. Misol uchun, foyda solig'i 2005- yilda 15 foiz, 2007- yilda 12 foiz, 2008- yilda 10 foiz, 2013- yilda 9 foiz, 2014- yilda 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015- yildan 7,5 foiz qilib belgilandi.

Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ayni vaqtda xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadlaridan o'n yil avvalgiga nisbatan 7,5 foiz kam soliq to'lashmoqda. Bir so'z bilan aytganda daromad solig'ining 0,5 foizga kamaytirilgani hisobiga joriy yil viloyatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida 400 million so'mdan ortiq mablag' qolishi kutilmoqda. Bunday o'zgarishlarni boshqa soliq turlarida ham ko'rish mumkin. 2015 yil uchun ishlab chiqilgan soliq siyosati konsepsiyasi ham ana shu jarayonni izchil davom etayotganidan dalolat berib turibdi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining qarori bilan jismoniy shaxslarga soliq solish yo'nalishida soliq qonunchiligiga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Masalan, mazkur qarorga asosan, o'rtacha ish haqidan past yoki unga teng miqdorda daromad oluvchi jismoniy shaxslar daromadlariga soliq yukini pasaytirish maqsadida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda daromadning birinchi guruhiga (eng kam ish haqining bir baravarigacha) «0» darajali stavkani nazarda tutuvchi to'rt pog'onali soliq stavkalarini qo'llash tartibi joriy qilindi. Eng kam ish haqining bir baravarigacha «0» foiz soliq stavkasining qo'llanilishi natijasida 2015 yilda budjetdan 3,6 mlrd. so'm tushum yo'qotilishi yoki aholining real daromadlari shu miqdorda oshishi kutilmoqda.

Bunda soliq stavkasi eng kam ish haqining yil boshidagi miqdoridan kelib chiqib qo'llanishi va bu miqdor, eng kam ish haqi qancha bo'lishidan qat'i nazar, yil davomida o'zgarmasligini nazarda tutuvchi norma kiritildi.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasini eng kam ish haqining yil boshidagi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblash tartibi belgilandi. Ayni vaqtda ayrim soliq stavkalari, jumladan yer solig'i va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari indeksatsiya qilindi.

Jumladan, joriy yil jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning amaldagi soliq stavkasi, ya'ni bazaviy stavka (200 kv.metr-gacha) – 1,3 foiz, shaharlarda: 200 kv. metrdan 500 kv. metr-gacha – 1,6 foiz, 500 kv.metrdan yuqorisiga – 2,2 foiz qilib belgilandi.

Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari saqlab qolingan holda, maishiy xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat'iy soliq stavkasi unifikatsiya qilindi. Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog va boshqa maishiy xizmatlar ko'rsatuvchilar uchun faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab quyidagicha qat'iy belgilangan soliq stavkalari joriy etildi: Toshkent shahrida – EKIHning 3,5 baravari (2014 yilda 4,0 foiz), viloyat markazlarida - EKIHning 1,5 baravari (2014 yilda 2,0 foiz), boshqa aholi punktlarida – EKIHning 0,5 baravari (2014 yilda 1,0 foiz) miqdorida.

2014 yildagi uy-joyning 1 m² uchun (umumiy maydondan kelib chiqib) ijara to'lovining eng kam miqdorini uning joylashgan joyiga qarab belgilangan tabaqalashgan miqdorlari o'zgarishsiz qoldirildi. (Toshkent shahrida - 3,0 ming so'm; Nukus shahri va viloyatga bo'ysunadigan shaharlarda - 2,0 ming so'm; boshqa aholi punktlari - 1,0 ming so'm).

Shu kabi, 2015 yildan boshlab, noturar joylarning 1 m² uchun (umumiy maydondan kelib chiqib) ijara to'lovining eng kam miqdorini uning joylashgan joyiga qarab tabaqalashgan miqdorlari belgilandi. (Toshkent shahrida - 6,0 ming so'm; Nukus shahri va viloyatga bo'ysunadigan shaharlarda - 4,0 ming so'm; boshqa aholi punktlari - 2,0 ming so'm).

Shuningdek, 2015 yildan avtotransport vositalari uchun ijara to'lovining eng kam miqdorlari quyidagicha belgilandi:

yengil avtomobillar (yo'lovchi, yuk tashish uchun mo'ljallangan va haydovchi o'rindig'ini hisobga olmagan holda 8 ta o'rindiqqacha bo'lgan avtotransport vositalari) 1 ta avtotransport vositasi uchun 220 ming so'm;

mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk tashish avtomobillari uchun 430 ming so'm.

Bundan tashqari, alohida toifadagi soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan soliq to'lovchilar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan umumiy maydonning 60 kv.m hajmida imtiyoz belgilandi.

Mikrofirma va kichik korxonalarga soliq solishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, xodimlarga to'lanadigan daromadlarni legallashtirish, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yukini pasaytirish maqsadida, mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 15 foizga tushirildi (boshqa xo'jalik subyektlari uchun 25 foiz stavka saqlab qolinadi). Buning natijasida, fermer xo'jaliklari ixtiyorida 98,4 mlrd. so'm, mikrofirmalar va kichik korxonalar hisobida 22 milliard so'mdan ortiq mablag' qoldirilishi kutilmoqda.

Qurilish sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlariga soliq yukini pasaytirish maqsadida, mikrofirma va kichik korxonalar toifasiga mansub bo'lgan qurilish tashkilotlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi amaldagi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi bunday toifaga kiruvchi qurilish tashkilotlari ixtiyorida qariyb ikki milliard so'm mablag' qoldirilishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki, 2014 yil 4 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Soliq va budget siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida qo'llaniladigan ayrim me'yorlar bilan Soliq kodeksi me'yorlarini birxillashtirish va Kodeks normalarini

to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash maqsadida 46 ta moddaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Soliq kodeksining 54-moddasi uchinchi qismiga quyidagicha o'zgartish kiritildi. Ya'ni, «Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish yuborib, tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar summalarini to'lashni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda amalga oshirishga haqli», deb ko'rsatildi.

Soliq kodeksining 79, 81, 271-moddalaridagi qo'shimchalar esa, ko'chmas mulkni obyektlar bo'yicha hisobga qo'yish, mol-mulk solig'i hisob-kitobini topshirish va uni to'lashni ushbu ko'chmas mulk joylashgan joyida amalga oshirishni nazarda tutib, ushbu normaning kiritilishi mahalliy budjetlar daromadlar bazasini oshiradi.

Kodeksning 223 va 225-moddalaridagi o'zgartishlar mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini har oyda taqdim etish va to'lashning yagona muddatini belgilaydi.

Soliq kodeksining 240-moddasiga kiritilgan o'zgartishlar aksiz solig'i bo'yicha har oyda joriy to'lovlarni to'lash va aksiz to'lanadigan tovarlarni taxmin qilinayotgan realizatsiya qilish hajmi asosida davlat soliq xizmati organiga joriy to'lov bo'yicha ma'lumotnoma taqdim etishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksning 286 va 369-moddalaridagi o'zgartishlar Prezidentimizning 2014- yil 7- apreldagi «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, yer solig'i va yagona yer solig'i bo'yicha to'lovlar muddatlarini yiliga uchtdan ikkitaga o'tkazishni nazarda tutadi. Ya'ni, yillik soliq summasining 30 foizi hisobot yilining 1 sentyabriga qadar, qolgan summasi 1 dekabrga qadar to'lanishi belgilab qo'yildi.

Soliq kodeksining 375-moddasiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar esa, yangidan ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqning birinchi to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oyning keyingi oyidan boshlab to'lashni, shuningdek, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kollejni tamomlagan paytdan boshlab bir yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab olti oy muddatga qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etilishini nazarda tutadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175 va 264-moddalariga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartish, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda soliq to'lovchilar tomonidan bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik uchun huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda, eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, bir yil ichida takror sodir etilganda besh baravardan o'n baravargacha ma'muriy jarima qo'llanishini ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi ikkinchi xatboshisiga «O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarning, akademik litseylarining hamda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 50 foiz oshadigan bo'lsa, xodimlar sonining oshirilishiga O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarning, akademik litseylarining va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'qishni tugallagan kunidan boshlab ko'pi bilan uch yil o'tgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi», deya o'zgartish kiritildi.

Bu tadbirlar o'z navbatida tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'larining ko'payishi va ularning tovar mahsuloti ishlab chiqarish hamda sotish hajmlarining oshishi natijasida soliq solish bazasining kengaytirilishiga, shuningdek, budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalar oldidagi boqimanda qarzдорlikning qisqartirilishiga, natijada esa, soliq va to'lovlarning yig'uvchanlik darajasi oshirilishiga imkon yaratmoqda.

Xo'sh, soliq stavkalaridagi yengilliklar tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida qoladigan mablag' qanday maqsadlarga sarflanadi, degan haqli savol tug'iladi. Aholi daromadining ortishi aynan ana shu savol bilan bog'liq. Chunki, bu mablag'lar eng birinchi navbatda ishchi-xizmatchilar moddiy manfaatdorligini oshirishga, korxona bazasini kengaytirishga, yangi ishchi o'rinlari yaratish va zamonaviy dastgohlar sotib olishga yo'naltiriladi.


Eng asosiysi, soliq yukining ana shunday kamayishi tufayli soliq to'lovchilarning ixtiyorida qo'shimcha pul mablag'lari qoldirilishi ularning ish faoliyatini rivojlantirishga ijobiy muhit yaratmoqda. Yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda. Albatta, bu tadbirlarning tag zahirida aholining real daromadini oshirish maqsadi yotibdi.

Ayni paytda soliq to'lovlarida kutilayotgan ana shunday o'zgartish va yangiliklardan soliq to'lovchilarni xabardor etish maqsadida shahar va tumanlarda jadval asosida seminarlar o'tkazyapmiz. Unda mutaxassislarimiz soliq to'lovchilarga batafsil tushuncha bermoqdalar. Fursatdan foydalanib, barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari, hisobchilariga ta'kidlab o'tmoqchiman: agar Sizda soliq qonunchiligiga oid har qanday tushunmovchilik, stavkalar bo'yicha ikkilanishlar bo'lsa o'z vaqtida hududiy soliq idoralariga murojaat qiling. Chunki, huquqbuzarlikni bartaraf etishdan ko'ra uning oldini olgan afzalroqdir.

So'nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat budjetining daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar ulushining ancha o'sayotganini hamda bevosita soliqlar salmog'ini kamayayotganini ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joyizki, soliq kodeksi joriy etilgan va undan keyingi yillarga bir nazar tashlaydigan bulsak. Soliqlar davlat budjetining xar yili 90 va undan ortiq foiz daromadlarini shakllantirayotganligiga amin bulamiz. Davlat budjetining har yili 90 va undan ortiq foiz daromadlarini shakllantirayotganligiga amin bulamiz. Keltirgan ma'lumotlarni real raqamlarda ko'rish uchun quyidagi diagrammaga e'tiborimizni qaratamiz.

5- diagramma

Bevosita, bilvosita va mol-mulk solig'ining davlat budjetidagi salmog'i¹⁷

Yuqoridagi ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'lyaptiki, Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita, bilvosita va resurs va mol-mulk soliqlarining salmog'i aloxida ahamiyat kasb etayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Agar daromad manbalari ya'ni soliqlarni guruxlash buyicha salmog'iga nazar tashlaydigan bo'lsak budjet daromadini shakllantirishda bilvosita soliqlarning salmog'i 50 foizni tashkil etmokda. Bizning fikrimizcha, bu tabiiy xol. Chunki, jahon iqtisodiy tajribasidan ma'lumki, har kandy rivojlanayotgan mamlakatda bilvosita soliqlarning salmog'i yuqori buladi.

Ishlab chiqarish sektori zimmasidagi soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar daromadlarini soliqqa tortish darajasini pasaytirish vositasida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy isloxatlarining birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqlarning yuqori stavkalari ijobiy natijalar bermadi. Ishlab

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jixatdan qayta qurollantirish uchun etarli mablag'larni yo'naltirish imkonini bermadi.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz lozimki, korxonalarimizning faolligini oshirishda hukumatimiz tomonidan soliqlar asosida ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan soliq yuki va soliq stavkalarining yillar davomida pasayib borayotganligi bundan dalolat bermoqda. Agarda quyida keltirilgan jadvaldan buning guvohi bo'lmoqdamiz.

Mahalliy budjetlarga ayrim daromadlarning biriktirilishi mahalliy xokimiyatlarning budjet mablag'larini o'z vaqtida va to'liq yigilishini taxminlashga, xamda xarajatlarni o'z vaqtida va to'liq yigilishini ta'minlashga shuningdek xarajatlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarga biriktirilgan mahalliy soliq va tushumlar xamda xar yili yangi budjet yili uchun davlat budjetini tasdiklash mobaynida davlat tomonidan mahalliy budjetlarga biriktirilgan daromadlardan tashkil topadi.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirish soliq siyosati strategiyasining ustuvor jixatlaridan biri sanalib, ular investitsiyalarga bo'lgan keskin ehtiyoj muammosini ma'lum darajada hal etadi va joriy iste'mol uchun resurslarni oshirish imkonini beradi. Xorijiy investorlar uchun pasaytirilgan stavkalar ayrim hollarda foyda solig'idan ozod qilishni nazarda tutuvchi foyda solig'iga tortish qulay tizimining yaratish qo'shma korxonalar sonini ortishiga olib keldi, so'ngi 5 yil ichida ularning soni ikki barobar orti va 3000 tadan oshdi.

Mahalliy mahsulot eksporti va mamlakatga erkin almashtiriladigan valyuta tushumlarini orttirish respublika iqtisodiy taraqqiyotining boshqa ustuvor vazifasi sanaladi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar eksportchi korxonaning foyda solig'i stavkasi 30 foizga pasaytiriladi, sotishning umumiy hajmida

eksport ulushi 30 va undan ortiq foizni qilganda belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi.

Umuman olganda soliqqa tortiladigan foydani shakllantirish mexanizimi soliqqa tortishning xalqaro tamoyillariga yaqinlashmoqda. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i hajmiga ko'ra ikkinchi o'rinda turuvchi bevosita soliq tushumi hisoblanadi. 2004 yilgi davlat budjeti daromadlarida uning YaIM ga nisbatan salmog'i 2,8 foizni tashkil etdi. 2005 yilda 3,1 foizni tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish aholi daromadlarini darajasi kabi ijtimoiy masalalar bilan uzviy aloqador. Jismoniy shaxslarni daromadiga solinadigan soliq yukini kamaytirish va fuqarolar daromadlarini tegishlicha qonuniylashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq shkalasi muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. 1998 yildan boshlab 45 foizlik eng yuqori stavka bilan 5 darajali shkala qo'llanib kelgan. 2000 yilda eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan oshuvchi daromaddan 40 foizlik eng yuqori stavka bilan 4 darajali shkala belgilandi. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini eng kam oylik ish haqini hisobidan chiqarmay hisoblab chiqarishning yangi uch darajali tizimiga o'tish hamda 2001 yildagi 36 foizlik stavkani 2002 yilda 33 foizgacha pasaytirish natijasida 2001 yilgi budjet daromadlari tarkibiga soliq salmog'i 2000 yilga nisbatan 1,4 foizlik punktga oshdi. Shu bilan birga 2001 yilda jismoniy shaxslar daromad solig'ining YaIMga nisbatan ulushi o'tgan yilgi 3,2 foizdan 3,3 foizgacha» oshdi. Xozirgi davrga kelib 2006 yildagi 13%, 21% va 29% o'rniga 2007 yildan 13%, 18% va 25% etib belgilandi.

Jismoniy shaxslar soliq yukini kamaytirish siyosati strategiyasi aholining, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik sohasidagi daromadlarini qonuniylashtirishga, budjetga daromadlar tushumini yanada oshirishga yo'naltirilgan. Biroq shuni qayd etish lozimki, mazkur mexanizm jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash instituti mavjud bo'lgandagina samaraliroq ishlaydi. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish mazkur soliq stavkalarining o'sib borishini pasaytirish hisobiga

aholining o'rta va yuqori daromadga ega guruhlari ortishini rag'batlantirish kontsepsiyasidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Bu hol o'rta va yuqori daromadga ega soliq to'lovchilarning qonunga zid operatsiyalar sohasidan qonuniy operatsiyalar sohasiga chiqishlariga imkon beradi.

O'xshash soliqqa tortish bazasiga ega soliqlarni birxillashtirish, soliq mexanizimini soddalashtirish ham soliq siyosatiga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Soliqlarni birxillashtirish deganda biz bir xil soliqqa tortish bazasiga ega soliqlarni birlashtirish (yoki qo'shish) ni tushunamiz, bu esa soliq to'lovchilar va nazorat organlari uchun ayrim soliq jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Soliq kodeksida ularni umumdavlat va mahalliy soliqlarga aniq ajratish soliqlarni birxillashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri bo'ladi. Bunday ajratish bilan bir qator samarasiz va bir-birini qaytaruvchi soliqlar geologik qidiruv ishlariga ajratmalar (ular er osti boyliklaridan foydalanish solig'ini takrorlar edi) olib chiqishga solinadigan soliq (Qo'shilgan qiymat solig'ining boshqa turi) o'rmondan tushgan daromad solig'i, turli yig'imlar bekor qilindi.

Ayni paytda oddiy ishlab chiqarish korxonasi atigi 5 ta asosiy soliq: foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i mol-mulk, er va infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini to'laydi. Buning ustiga ularni hisoblab chiqarish va to'lash mexanizmini yanada soddalashtirish davom etmoqda. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lash mexanizimi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda-mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi.

Bundan tashqari, hisobvaraqa-fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Har yili unga doir bo'nak to'lovlar to'lash muddatlari miqdori qisqarib bormoqda.

Fikrimizcha, foyda solig'i stavkasini yanada pasaytirish soliq undirishning quyi pog'onasiga yaqinlashib qolganligimiz tufayli maqsadga muvofiq emas. Ayni paytda xorijiy mamlakatlarda daromad (foyda) solig'i korxonalarning barcha xarajatlari chegirilganda to'lanadigan korporativ soliq 18 foizdan 45

foizgacha boradi. MDX mamlakatlari orasida eng ko‘p quyi stavka O‘zbekistonda –10 foiz va Rossiyada-24 foiz, Ukrainada-30 foiz. Olis xorijda quyi stavka Vengriyada-18 foiz, Eng yuqori stavka Germaniyada-45 foiz.

2004-2008 yillarda mazkur soliq bo‘yicha tushumlarni quydagi yo‘nalishlarda yanada takomillashtirish nazarda tutilmoqda: qaytar tartibda soliq solinadigan daromadga kiritiladigan soliq solinadigan bazadan chegirmalarni kengaytirish hisobiga.

Yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish borasida Respublikada sekin asta xalqaro tizimga birlamchi (tarixiy) qiymatdan soliq undurishdan qoldiq qiymatdan soliq undirilishga o‘tkazilgan. Asta sekin stavka pasaytirilib, bazasiga ko‘ra bir xil yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i va transport vositalariga solinadigan soliq birlashtirildi. Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga soliq joriy etish bilan bir payitda jismoniy shaxslarga solinadigan mol-mulk solig‘ining soliqqa tortiladigan bazasidan transport vositalari qiymati olib tashlandi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning joriy etilishi aholi orasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotning borishi bilan shartlanadi. U joriy etilgandan so‘ng ikki yil davomida budjetga to‘lanayotgan summaga qarib 3 barobar ortdi. Soliqqa tortish rejimlari va ularni qo‘llash chog‘idagi soliq tushumlari (umum belgilangan soliqlar, yalpi tushum solig‘i, yagona er solig‘i) hajmlarining tarkibiy tahlili ushbu toifadagi soliq to‘lovchilarning respublika bo‘yicha soliq tushumlari umumiy hajmdagi salmog‘i ortgani va 2006 yilda 6,9 foizga etganini ko‘rsatdi.

Kichik korxonalarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini tanlangan subyektlar sonining ko‘payishi omillari tahlili soliq yukini qisqartirish maqsadida yirik va o‘rta korxonalarni parchalash, ular bazasida bir qator mayda korxonalarni yaratish (ishlovchilar soniga ko‘ra kichik korxonalar mezonlariga mos keluvchi) hisobiga kichik biznes subyektlari soni ortayotganini ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan soliq solishning soddalashtirilgan tizimini kengayishi uchun Yaponiya, XXR, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa

mamlakatlarda nazarda tutilgandek, qo‘shimcha mezon- korxona balansida turgan mol-mulk va tushum hajmi qiymatini joriy etish masalasini ko‘rib chiqish mumkin deb hisoblaymiz.

Resurslarni tejaydigan ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirishni ta‘minlovchi resurs soliqlari stavkalarini maqbullashtirishni taklif qilamiz.

Resurs soliqlari er, suv, er osti bayliklari kabi muhim resurslarning tejallishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bunda korxonalar manfaatlarning tejallishini ta‘minlaydigan va bir vaqtning o‘zida resurslarni tejovchi ishlab chiqishlarni rag‘batlantiradigan soliqlarning maqbul stavkalarini joriy etish muhim sanaladi.

Asosiy resurs tejovchi soliqlardan biri er solig‘i (jumladan, yagona er solig‘i) hisoblanadi. Amaldagi er solig‘i stavkalari er boniteti darajasidan kelib chiqib belgilangan, bunda so‘ngi payitlarda er solig‘i stavkalarida (har yilgi indeksatsiyadan tashqari) sezilarli o‘zgarish ro‘y bermadi.

Soliqlarning yig‘uvchanlik darajasini oshirish va boshqa zahiralar hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish omili. Soliqlarning yig‘iluvchanligi ikkita asosiy tarkibiy omilga bog‘liq:

- Soliqqa tortish mexanizmlarini o‘zgartirish hisobiga soliqqa solinadigan bazani kengaytirish.
- Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish.

Soliq solinadigan bazani kengaytirish, tadbirkorlar va aholi daromadlarini qonuniylashtirish maqsadida respublika hukumati tomonidan joriy yilda soliqqa tortish tizimida tub o‘zgartirishlar qabul qilindi. Xususan, «Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» kichik korxonalar uchun belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, yalpi daromad solig‘ini to‘lovchi savdo korxonalari uchun ilgari to‘lanadigan soliqlar o‘rniga yalpi tushumdan yagona soliq to‘lash tizimi joriy etildi. Ayni vaqtning o‘zida ulgurji savdo korxonalari QQS to‘lovchilari hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Yuqoridagi

ko'rsatilgan o'zgarishlar hisob tizimini ancha yaxshilaydi va savdo kabi murakkab sohada soliqlar yig'ilishi darajasini oshiradi.

III -bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob yakunida yuqorida keltirilgan holatlar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkinki, u ham bo'lsa mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosatini olib borishda bir qator muammolar yuzaga klisi va ularning bartaraf etish yo'llari o'z qo'liizda ekanligini unutmasligimiz kerak Ushbu holatlarni inobatga olgan holda qo'yidagi xulosalarga keldik:

1. Ma'lumki mamlakatimizda iqtisodiy faolik boshqa iqtisodiy dastaklar sifatida soliq siyosati va soliq tizimining barqarorligini ta'minlash asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu holatlardan biri, xorijiy investorlar o'z kapitallarini yangi ishlab chiqarish yaratilishi, mavjud ishlab chiqarish bazalarini kengaytirish, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shaklida kapital qo'yishlariga qulay shart-sharoit yaratish lozim. Bu borada olib borilayotgan ishlarni kuchaytirish kerak;

2. Xorijiy sarmoyalarni jalb etishda soliqlar bo'yicha erkin iqtisodiy hududlar yaratish. Bunday hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uchun soliq solishning maxsus tartibi joriy etiladi. Mazkur hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalarga turli soliq imtiyozlari beriladi. Umumiy qilib aytganda, yuqoridagi soliq rag'batlantirishlari shu hududlarda amalga oshiriladi. Bu borada Navoiy, Angren, Olmaliq va Jizzax viloyatlarida ishlar amalga oshirilmoqda shu yo'nalishda ishlarni jadallashtirish joylarda ish o'rinlarini yaratish va buning asosida kelgusida davlat va mahalliy budjet daromadlarining ortishiga erishishimiz mumkin.

3. Respublikamizda xo'jalik yuritish va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllariga o'tish bilan soliqqa tortishning me'yoriy-huquqiy bazasi muntazam ravishda takomillashib bordi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi va joylardagi Davlat soliq inspeksiylari tomonidan tashkil

etilayotgan seminarlarni muntazam ravishda olib borish va o'tkazish kerak. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarimizning davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining uning tamoyillariga tayangan holda yo'naltirilayotganligi va ularning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishlari uchun zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq-budjet siyosati mamlakat moliya tizimining asosini tashkil etadi. Mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularni to'g'ri yo'naltirish samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda soliq siyosati strategiyasi va taktikasi munosabatlarining qanday asosga tayanayotganligi juda muhimdir. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasining yaxlitligiga erishish mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, samarali budjet siyosatini yuritishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish emas, balki soliqqa tortishning maqbul tizimini shakllantirish deb hisoblaymiz. Belgilangan yo'nalishlardagi muammolar ijobiy hal qilinsa, korxonalar boqimandaligini kamayishiga, soliqlarni budjetga o'z vaqtida to'liq undirishga, takror ishlab chiqarishni tezlashtirishga va boshqa muammolarning hal qilinishiga, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning va soliq siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, mamlakatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida erkin raqobatni yuzaga keltirish orqali ichki bozorni to'yintirish hisoblanadi. Soliq siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bu maqsadni ba'zan inkor eishini kuzatamiz, ya'ni bir tarmoqdagi ikki xo'jalik yurituvchi subyektning biriga imtiyoz berish orqali, ikkinchisining imkoniyatlarini kamaytirib qo'yish mumkin. Imtiyozlarni belgilashda asosiy omil qilib tarmoq xususiyatini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Bu esa, bir tarmoq ichida erkin raqobatni va narxlar tengligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar umumiy iqtisodiy tizimning bir bo'g'ini hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq siyosati strategiyasi va taktikasi mamlakatning makroiqtisodiy va mikroiktisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi. Shunday ekan, soliq siyosatining strategiyasini va taktikasini uzviyligini ta'minlashning asoslarini o'rganish ham muhimdir. Chunki soliq

siyosati strategiyasini chuqur o'rganib, ilmiy asoslash orqali soliq taktikasini samaradarligini oshirish va bozor iqtisodiyotida davlatimiz va yurboshimiz mamlakatimiz ravnaqi uchun belgilagan strategiyasiga, ko'zlagan maqsadiga erishish oson kechadi.

Magistrlik dissertatsiya ishimizning nihoyasida soliq siyosatiining barqarorligini ta'minlash tizimini rivojlantirishni o'rganish asosida olingan asosiy xulosa va takliflarni, qisqacha eks ettiramiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Soliq siyosati – mamlakat bo'yicha ma'lum vaqtga belgilangan kontsepsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va moliyaviy siyosatining asosiy tarkibi, davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to'lash tartiblarini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli tadbirlardir.
2. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek “Soliq siyosatining vazifasi –bir tomondan davlat budjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlash, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat”¹⁸. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda soliq siyosatining amalga oshirilishi natijasida budjet daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdek vazifaning bajarilishi printsiptial ahamiyatga egadir.
3. Soliq tizimini davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, muvofiqlashtirilgan bu tadbirlari soliqqa tortish bilan bog'liq barcha munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, yoki soddaroq qilib aytganda soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy, amaliy tavsiyalar va qonun me'yorlarining ishlab chiqilishi va joriy etilishidir.
4. Soliq siyosati - iqtisodiy siyosatning umumlashgan ifodasi hisoblanib, har bir davlatda u muayyan davr talab va extiyojlariga muvofiqlashtirilib turadi, chunki soliq siyosati davlatchilik siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
5. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib, respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish,

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –b.52

ijtimoiy himoyalangan, erkin bozor iqtisodiyotini boshqarishga xar tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

6. soliq siyosati korxonalarni respublikamiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi ham kerak. Bu yerda gap soliq siyosati taktikasini amalga oshirish natijasida, eng avvalo, respublikamiz ichki bozorining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qilishi kerak. Undan tashqari, soliq siyosati strategiyasi umumiy tarzda korxonalarni mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirmasdan, balki ularni respublikamiz uchun zarur bo'lgan yoki respublikamizdagi talabga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishi kerak.

7. Soliq siyosatini yuritishda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar zahirida mahalliy joylarda yuridik shaxslarga nisbatan e'tiborni kuchaytirishimiz, qolaversa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning sifat nuqtai nazaridan sonining ortishiga e'tiborni kuchaytirish lozim;

8. Yuqoridagi holat o'z o'rnida mahalliy joylarda davlat budjeti daromadlarining ortishiga olib kelishini unutmashimiz darkor, bu esa o'z o'rnida mahalliy budjet harajatlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun sharoit yaratadi;

9. Joylarda soliq siyosatini olib borishda unga ta'sir etuvchi barcha omillarni inobatga olish kerak. Bu vazifa bir tomondan faqatgina soliq inspeksiya xodimlarini emas balki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ham asosiy vazifasi ekanligini joylarda tashkil etilayotgan seminarlarda ularning yodiga solinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki hukumatimiz tomonidan ularga nisbatan yaratilayotgan shart sharoitlarni unutmashimiz kerak;

10. Soliq siyosatini yuritish jarayonida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan o'zimizning mahalliy hamma tomonlama mos keladigan tomonlarini amalda qo'llashimiz lozim.

11. Ma'lumki mamlakatimizda iqtisodiy faollik boshqa iqtisodiy dastaklar sifatida soliq siyosati va soliq tizimining barqarorligini ta'minlash asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu holatlardan biri, xorijiy investorlar o'z kapitallarini

yangi ishlab chiqarish yaratilishi, mavjud ishlab chiqarish bazalarini kengaytirish, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shaklida kapital qo'yishlariga qulay shart-sharoit yaratish lozim. Bu borada olib borilayotgan ishlarni kuchaytirish kerak;

12. Xorijiy sarmoyalarni jalb etishda soliqlar bo'yicha erkin iqtisodiy hududlar yaratish. Bunday hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uchun soliq solishning maxsus tartibi joriy etiladi. Mazkur hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalarga turli soliq imtiyozlari beriladi. Umumiy qilib aytganda, yuqoridagi soliq rag'batlantirishlari shu hududlarda amalga oshiriladi. Bu borada Navoiy, Angren, Olmaliq va Jizzax viloyatlarida ishlar amalga oshirilmoqda shu yo'nalishda ishlarni jadallashtirish joylarda ish o'rinlarini yaratish va buning asosida kelgusida davlat va mahalliy budjet daromadlarining ortishiga erishishimiz mumkin.

13. Tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng imkoniyatlar ochib berish, shu bilan birgalikda budjet kamomadiga yo'l qo'ymaslik va ushbu iqtisodiy vazifalardan kelib chiqqan holda soliq siyosati strategiyasini to'g'ri oqilona ishlab chiqish.

14. Respublikamizda xo'jalik yuritish va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllariga o'tish bilan soliqqa tortishning me'yoriy-huquqiy bazasi muntazam ravishda takomillashib bordi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi va joylardagi Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan tashkil etilayotgan seminarlarni muntazam ravishda olib borish va o'tkazish kerak. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarimizning davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining uning tamoyillariga tayangan holda yo'naltirilayotganligi va ularning majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishlari uchun zamin yaratadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan takliflarni amalga oshirish rivojlanib borayotgan O'zbekiston soliq siyosatining yanada rivojlanishi va uning iqtisodiy islohotlarda takomillashuviga olib keluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003,-121 b.
2. "Budjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.- T.: «O'zbekiston», 14 dekabr 2000 yil, -43 b.
3. «Davlat budjetining g'aznachilik ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. - T.: "O'zbekiston", 26 avgust 2004 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T.: O'zbekiston, 25 dekabr 2007 yil, 263- bet

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq-budjet konsepsiyasidan kelib chiqadigan soliq sohasidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining 2014 yilga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq-budjet konsepsiyasidan kelib chiqadigan soliq sohasidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasining 2013 yilga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq-budjet konsepsiyasidan kelib

chiqadigan soliq sohasidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli qarori

5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq-budjet konsepsiyasidan kelib chiqadigan soliq sohasidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1667-sonli qarori

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2013 y. b
2. Karimov I.A., «O'zbekiston buyuk kelajak sari» – T., O'zbekiston, 1998 yil.
3. I.A.Karimov. "2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.", 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
4. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2011. – 56 bet.
5. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 bet.

IV. Asosiy adabiyotlar

6. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya Darslik /Toshkent moliya instituti. – Toshkent: “Nashr”, 2012. 712 b.
7. Vahobov A.V, Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.:Sharq, 2009. 448 bet.
8. Toshmatov Sh.A. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish asoslari . Monografiya. –T.: “Moliya”, 2012. –160b.
9. Malikov T.S., P.T. Jalilov Budjet-soliq siyosati T.S. Malikovning umumiy taxriri ostida; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Tosh. Moliya in-ti. –T.: Akademnashr, 2011.- 472 b
- 10.Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. / N. R. Kuziyev, T., Toshkent Moliya Instituti. 2004 y., 90 b.
- 11.Nazarova G.G‘. Nosirova K.A. Halqaro iqtisodiy integratsiya O‘quv qo‘llanma TDIU. T.: 2012. 128b.
- 12.Mirzaev T., Muxitdinov S. Soliq to‘lovchilarning huquqlari va majburiyatlari: O‘quv qo‘llanma. T.: DSQ Maslahat markazi.2003 y.
- 13.O.A.Mironova, F.F.Xanafeyev. Nalogovoe administrirovanie. M. 2006
- 14.R. Xizrich, M. Pitera Predprinimatelstvo// Vip 1. M.,1991, s20
- 15.K. Makkonell, S. Bryu Ekonomika. Prinsipi, problemi i politika. – M.:Respublika, 1992.- s.38
- 16.G‘ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: “Sharq”, 2002. -9 b..
- 17.Chernik D.G. i dr. Nalogi i nalogooblojeniya. M.:YuNITI – DANA, 2008. 311 s

V.Qo‘shimcha adabiyotlar

- 18.Xodov L.G., Popov V.I. Podoxodnoe nalogooblojenie fizicheskix lis (zarubejniy opit, rossiyskie problemi): Ucheb.posob.- M.: TEIS, 2004.
- 19.Xodov P.G. Nalogi i nalogooblojenie ekonomiki: Uchebnoe posobie. - M.: TEIS, 2003.

VI.Davriy nashrlar, statistik ma’lumotlar to‘plami

1. Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasini isloh qilish yo'nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. - T.: TDIU, 2007 yil 14-15- dekabr
2. «Bozor, pul va kredit» jurnali.
3. «O'zbekiston iqtisodiyoti» jurnali.
4. «Xalq so'zi» gazetasi
5. «O'zbekiston Iqtisodiyoti» statistik ma'lumotlar to'plami. -T., 2009-2010 yillar

VII Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

1. M.M. Abduraxmonova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati 2012 y. 21 b
2. Boboyev A.Ch. Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining nazariy jihatlar va ustuvor yo'nalishlari iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati 2011 y. 26 b

VIII. Internet saytlari

1. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
2. www.mf.uz- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
3. www.mb.uz - O'zbekiston Respublika Markaziy banki sayti.
4. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.